

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘l yozma huquqida*  
*UDK 811.512.154(076)*

**SULAYMONOVA SAODATNING**

**“MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHI**  
**O‘SMIRLARNI MA‘NAVYIY-AXLOQIY SIFATLARINI**  
**SHAKILLANTIRISH TIZIMI”**

**MAVZUSIDAGI**

**5A110901 – Pedagogika nazaryasi va tarixi ( yo`nalishlar bo`yicha)**  
**mutaxassisligi bo`yicha**  
**Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

**DISSERTATSIYA**

**NAMANGAN 2017**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik yillarida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur sohaning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi esa jamiyatda bozor, ishlab chiqarishga asoslangan ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan va ijtimoiy munosabat mazmunida raqobat yetakchi o'rin egallayotgan mavjud sharoitda fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi. O'tish davrida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy jihatdan muhofazalash boshqaruvda demokratik va insonparvarlik tamoyillariga amal qiluvchi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligiga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ham alohida urg'u beriladi. Chunonchi, "Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi" [1, 2].

Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari (ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan yoshlar) jamiyat va davlat tomonidan alohida ijtimoiy muhofazalanishga muhtoj sub'ektlar sanaladilar. Ularning "ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda" [3, 4]. Mavjud sharoitda davlat tomonidan ularni ijtimoiy jihatdan muhofazalash yo'lida keng ko'lamli amaliy harakatlar tashkil etilmoqda. Biroq "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish, ularning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidagina g'amxo'rlik qilinishi yetarli emas. Ularning taqdiri uchun jamiyatning har bir a'zosi ma'sul bo'la olishi zarur. Shunday ekan, "Mehribonlik uylari"ning tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda davlat bilan birga keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlashga erishish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Barcha davrlarda ham ma'lum jamiyatda ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan yoshlar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar) mavjud bo'lishgan. Ularga nisbatan ijtimoiy e'tibor turli jamiyat, davlatlarda turlicha bo'lgan. Islom dini ta'limotida esa bu kabi shaxslarga nisbatan insonparvarlik g'oyalariga tayangan holda munosabatda bo'lish eng oliy sifat tarzida baholangan. O'zbek xalqi taraqqiyoti tarixida ham ushbu g'oyalarga og'ishmay amal qilib kelingan. Bu holat ayniqsa urush harakatlari olib borilayotgan vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan minglab bolalarning o'zbek oilalariga qabul qilinishi, o'ta og'ir sharoitda ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar-joylar bilan ta'minlash borasida ko'rsatilgan g'amxo'rlik yuksak insonparvarlikning yorqin namunasidir.

Bir qator mamlakatlarda XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida asosan cherkovlar qoshida ota-onasiz qolgan yoki qarovsiz bolalarni qabul qiluvchi, ularni vaqtinchalik bo'lsa-da, oziq-ovqat, kiyim-bosh va turar-joy bilan ta'minlash ishlari yo'lga qo'yila boshlandi. Keyinchalik xayriya tashkilotlari bunday vazifalarni o'z zimmalariga olishgan. Ayni vaqtda ham ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida xayriya tashkilot (jamiyat, uyushma)lari tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tashkilotlardan biri Buyuk Britaniyada faoliyat yurituvchi "Bolalarni qutqarish" tashkiloti bo'lib, mazkur tashkilot ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan bolalarni ta'lim muassasalariga jalb etish, ularga ta'lim berish vazifalarinigina qilib qolmay, shu bilan birga ularning ruhiyatini o'rganish asosida ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalarini ham tadqiq qilib kelmoqda.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishning puxta asoslangan mexanizmini yaratish, keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniqlash, yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini hal etishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

Tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zolari sifatida o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish, ular tomonidan muayyan kasb yoki hunar

sirlarining o'zlashtirilishiga erishish, keskin raqobatlariga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini belgilash tadqiqot muammosi sifatida tanlangan muammoning yechimlari bo'la oladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qur'onu karim, Hadisu shariflarda ota-onasiz qolgan bolalarga munosabat, ularning hayotlarini yo'lga qo'yishga ijtimoiy yondashuv, ota-onasiz bolalarga ko'rsatilayotgan mehr-muhabbat, rahm-shafqat va oqibatning islomiy talqini hamda ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish, shuningdek, ularni ijtimoiy muhofaza qiluvchi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish va takomillashtirish masalalari o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin muhim pedagogik muammolardan biri sifatida keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi va bu masala jadidizm harakatining vakillari, ma'rifatparvarlar – Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniylarning [5] pedagogik faoliyatlarining muhim yo'nalishini tashkil etdi.

**S.Ahmedova, O.Gryaznova, I.V.Dubrovina, R.Kim, P.V.Migeleva, O.Parfenova, A.G.Ruzskaya, E.To'xtamurodov, Sh. Xodjaeva hamda N.Egamberdieva, O'.Asqarova, G.Yusupova** kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida O'zbekiston hamda xorijiy mamlakatlarda bolalar uylarida tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, ijtimoiy pedagogning yetim bolalar bilan olib boradigan faoliyati mazmuni va metodlari, bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ruhiy kamol toptirish yo'llari, Mehribonlik uylari psixologlarining vazifalari va ularga qo'yiladigan talablar, yetimlikning ijtimoiy maqomi va ota-onasiz qolgan bolalar bilan olib boriladigan faoliyat tizimi, yetim bolalarning ijtimoiy maqomini tan olinish tarixi masalalari tadqiq etilgan.

Muammoning pedagogika nazariyasida o'rganilishining dastlabki tahlili mehribonlik (bolalar) uylari faoliyatini samarali tashkil etish, mazkur ta'lim muassasalari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida mustahkam aloqa va hamkorlikni

qaror toptirish, tarbiyalanuvchilarga malakali psixologik xizmat ko'rsatish, ularda ijtimoiy munosabatlar jarayonida jamiyatning boshqa a'zolari bilan birdek ishtirok eta olishga yordam beruvchi sifatlarni tarbiyalash masalalarining yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmaganligini ko'rsatdi. Umuman olganda, Mehribonlik uylari faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan masalalar mavjud bo'lgani holda keng ko'lamda tadqiqotlar olib borilmagan. Bu holat tadqiqot yo'nalishi sifatida **“Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirish tizimi”** mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi:** tadqiqot “Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali, shuningdek, boshqaruv kadrlarni tayyorlash muammolarini tadqiq etish” (DITD-3) yo'nalishi bo'yicha 1.1-raqamli “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlantirish muammolari” Davlat texnik ilmiy dasturi doirasida hamda Namangan davlat universitetining ilmiy ishlar rejasiga muvofiq bajarildi.

#### **Tadqiqot maqsadi:**

Komil insonni tarbiyalashga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talab, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish ishlar mazmuni, shuningdek, tarbiyaviy omillar ta'sirini o'rgangan holda tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishning yaxlit tizimini asoslash va ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

1. Pedagogik va psixologik manbalarni o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni ilmiy-nazariy hamda tarixiy-qiyosiy tahlil qilish asosida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishning mavjud ahvolini ob'ektiv baholash.

2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalarini qiyosiy o'rganib, eng maqbul yo'llarni belgilash hamda qarashlarni umumlashtirish.
3. Mehribonlik uylarining faoliyatini o'rganish orqali tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish borasidagi imkoniyatlari, shart-sharoitlarini o'rganish hamda mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash.
4. Ijtimoiy tashkilotlar ko'magi va ishtiroki asosida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.
5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini yaxlit tizim asosida o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishning amaliy asoslari (shakl, metod va vositalari)ni aniqlash.
6. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ekti:** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish jarayonining mazmuni, tamoyillari, o'ziga xos ijtimoiy-ruhiy jihatlari, tashkiliy-texnologik asoslari.

**Tadqiqot metodlari:**

- pedagogik, psixologik va ijtimoiy adabiyotlarni o'rganish; nazariy tahlil;
- tarixiy-qiyosiy tahlil;
- bashoratlash;
- modellashtirish;
- Mehribonlik uylari faoliyatini yorituvchi hujjatlar va pedagogik tajribalarni o'rganish;
- pedagogik kuzatish;
- anketa;

- suhbat;
- intervyu;
- pedagogik tajriba;

### **Tadqiqotning metodologik asosi:**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning nazariy g'oyalari, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18 fevraldagi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan "Mehribonlik uyi to'g'risida"gi Nizom talablari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning komil insonni tarbiyalashga oid qarashlari, shaxsni tarbiyalashga nisbatan yagona, integral, majmuaviy, texnologik yondoshuv; shaxsning rivojlanishi to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va tibbiy-biologik ta'limotlar; shaxsning ijtimoiylashuvi to'g'risidagi pedagogik va psixologik ta'limotlar tashkil etadi [6, 7].

### **Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish ilmiy-metodologik asoslari.
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy yetukliklari darajasini aniqlovchi mezonlar.
3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish jarayonining andozasi.
4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishning amaliy asoslari (shakl, metod va vositalari).
5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda yangi yutuqlarga erishishni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish Kontseptsiyasi va ilmiy-metodologik asoslari o'rganiladi.

2. “Ma’naviyat”, “ijtimoiy axloqiy munosabatlar sub’ekti” va “ma’naviy yetuklik” tushunchalariga pedagogik nuqtai nazardan ta’riflar beriladi.
3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining o’ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ijtimoiy yetukliklari darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqiladi.
4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga yordam beruvchi amaliy asoslar (shakl, metod va vositalar) aniqlanadi.
5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga yo’naltirilgan dastur yaratiladi, shuningdek, mazkur jarayon samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish Kontsepsiyasining ishlab chiqilishi O’zbekiston Respublikasining “Sog’lom avlod davlat dasturi” g’oyalarini amaliyotga samarali tadbiq etishga yordam beradi.
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida ma’naviy ruhiy tetiklik qaror toptiriladi va ularning jamiyat bilan birliklari ta’minlanadi.
3. Tadqiqot muammosining samarali hal etilishi Mehribonlik uylarida yo’lga qo’yiladigan ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning sifatini oshiradi, pedagog kadrlarni nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi, didaktik ishlanmalar sonini ko’paytirib, g’oyaviy jihatdan takomillashtiradi.
4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish asosida hayotga tez moslashishlari, shuningdek, hayotiy qiyinchiliklarni yenga olishlariga yordam beradi.

**Natijalarning joriy qilinishi.** Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari Andijon shahridagi SOS Bolalar shaxarchasi, Namangan shahrida 26-sonli “Mehribonlik uylari”da olib borildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Kirish, asosiy mazmuni yorituvchi uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 98 betdan iborat bo'lib, asosiy mazmun 73 betda yoritilgan.

## **I BOB. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari**

### **1.1. Ma'naviy-axloqiy sifatlar tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari**

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hukumat tomonidan barcha e'tibor milliy qadriyatlar va madaniyatni qayta tiklashga, ta'lim-tarbiya tizimini islox qilishga, milliy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratildi. Bu borada yurtboshimiz o'z asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: - “Biz quradigan jamiyat... milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta taklanishini, insonning ma'naviy-ahloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va xalq an'analari ta'siri ostida samarali bo'ladi, ma'naviy-ahloqiy barkamollikka erishiladi. Ma'naviy- ahloqiy tarbiyaga “Yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori ” sifatida qaraladiki, ular milliy ma'naviy- ahloqiy tarbiyaning metodologik asosini tashkil qiladi”.

Ma'naviy yangilanishda tarbiya muhim rol o'ynaydi. Komil inson tarbiyasi barcha zamonlarda bo'lganidek, bizning davrimizda ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Tarbiya soxasidagi islohotlarning eng muhim jihati shundaki, endilikda necha o'n yillar davomida takrorlanib kelingan pand-nasihatlar asosidagi tarbiyadan amaliy faoliyatga, chinakkam ma'naviyat tarbiyasiga o'tildi. Bunda xalqimizning azaliy an'analari, bugungi milliy taraqqiyotida hizmat qiladigan urf-odatlar, tili, dini, ruhiyati bilan bir qatorda umuminsoniy yutuqlarga sadoqatni tarbiyalashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi va erkinligiga erishish, komil insonni tarbiyalash ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat. Tarbiya hech kechiktirib bo'lmaydigan, bir daqiqa ham ortga surilmaydigan psixologik-pedagogik jihatdan uzluksiz, davomiy jarayondir. Bu jarayonda insonning kelgusi taqdiri, shuningdek inson bilan bevosita bog'liq jamiyat va tuzum taqdiri hal bo'lishi mumkin. Xususan, tarbiyalanganlik bizning mustaqil mamlakatimiz uchun nihoyatda zarur.

Tarbiya-shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifasiga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan barcha ijobiy ta'sirlari yig'indisi hisoblanadi. Binobarin, insonning yaxshi tarbiyalanganligi esa uning odamiyligi, o'zini tuta bilishi, kishilarga hurmatda bo'lishida, pokizaligida, kamtarligida va yuksak ahloqiy madaniyatida namoyon bo'ladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidir" [6]degan fikrini keltirib, tarbiya insonning, insoniyatning yashab turishi uchun eng muhimi ma'naviyat ekanligini bejiz ta'kidlamagan edi.

Darhaqiqat, buyuk ma'rifatparvarning ibratli so'zlari asrimiz millatimiz uchun ne chog'li muhim va ahamiyatli hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda ham uning ahamiyati sira kam emas, yanada yuksak va qadrlidir.

B.G'aniev o'zining "Yoshlar tarbiyasiga ma'naviy yangilanishlar ta'sirining ayrim masalalari" nomli maqolasida ma'naviyat tarbiyasi tizimida sog'lom avlod dasturi o'ziga xos o'rin tutishi xususida fikr yuritgan. Dasturga muvofiq sog'lom ma'naviyat tarbiyasi tizimini shartli ravishda besh bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich - nasl tarbiyasi bilan uzviy bog'langan, oilani tashkil etuvchi er-xotinning sog'lomligi, ular o'rtasidagi ma'naviy, oilaviy muhitni sog'lomlashtirishni nazarda tutadi

Ikkinchi bosqich - bo'lajak onaning ruhiy-ma'naviy olami mazmundorligini ifoda etadi.

Uchinchi bosqich - bolaning bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Xarakterining shakllanishi, bir qator hayotiy tushunchalar davrida qaror topadi. Bunda, shubhasiz, asosiy ma'suliyat ota-ona zimmasiga tushadi, bolaning shaxsiy sifatleri shu davrda shakllanadi.

To'rtinchi bosqich - bolada, asosan dunyoqarash va e'tiqod tarkib topa boshlaydi. Bu davrda tarbiyachilarning faoliyati ham bab-baravar ishtirok etadi.

Beshinchi bosqich - bolada ahloqiy tushunchalar va ularning amaliy jihatlariga qiziqish ortadi, bu davrda Vatanparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari tarkib topadi [31].

Bugungi kunda jamiyatning ma'naviy yangilanish ob'ektlari u yoki bu ma'noda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ma'naviy yangilanish birinchi nivbatda kutubxonalardan boshlanishi lozim. Falsafa, tarix, etnografiya, folklor, adabiyot va pedagogika fanlarida "ma'naviyat-ma'naviy", "Ahloq-ahloqiy" kabi atamalari juda ko'p qo'llaniladi. Zero, ular insonning hayot va turmush tarzini, jamiyatning rivojlanganligi darajasini belgilab beradi. Shuning uchun dastlab bu atamalarning falsafiy, pedagogik ma'no-mazmunini bilib olish zarur.

Ma'naviyat-ruh (dil) ning bevosita va faol ta'siri ostida ro'y beradigan insonning barcha xatti-xarakati, yurish-turishi, muomala munosabati, turli-tuman xolati va faoliyatning majmuasi (yig'indisi)dir [7].

"Ma'naviyat juda keng qamrovli, mazmundor tushunchadir. Ma'naviyat insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sof - dillik, vijdon, or nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevishi, zavqlanishi, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat kabi insoniy hislatlari va fazilatlarining mazmunidir". Ma'naviyat insonni ruxan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-etiqodini butun qiladigan vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch. Uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi xayotimizda xartomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan, xaqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. "Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarini o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun xam bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'noda "Ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amho'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan [29].

Ma'naviy yangilanish, eng avval, inson dunyo qarashini tushunchalarini, ta'lim-tarbiyasini, hayotga bo'lgan munosabatini fuqorolik va vatanparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. "Ma'naviyat-jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir".

Axloq-kishining fe'l atvori bilan uzviy bog'liq. "Ahloq" arabcha so'z bo'lib, u "xulq"ning ko'pligidir ya'ni odamlarning oilaga, bir-birlariga, mahallaga, do'st birodarlariga, xalqiga, millatiga, vatanga, jamiyatga nisbatan muomala munosabatlarida sodir bo'ladigan xatti-harakatlari, xulqi qoidalarining majmuasidir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ahloqni shunday tariflaydilar: "Ahloq-ma'naviyatning o'zagi...Ahloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani".[4]

Axloq tarixiy xususiyatga ega. Chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to'planagan ahloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning ahloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, taxlil qilish g'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi hislatlari: Mehr-muhabbat, rahm shafqat, adolat-u diyonat, hayo-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi beburd, ahloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Ahloq mazmuni muayyan qadriyat, ma'naviyat yo'l-yo'riqlari, xulq -atvor me'yorlari va insonlararo muomala madaniyatini o'z ichiga oladi. Yaxshi ahloqiy tarbiyaga ega bo'lgan kishilar iymonli, e'tiqodli bo'ladilar. Ma'naviyatli insonlar ahloqli bo'ladilar, ahloqli insonning ma'naviyati bo'ladi. Demak ana shu sifatlrni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mujassamlashtirib, ya'ni integratsiyalagan xolda yetkazish bugungi kunning dolzarb muammosidir [30].

Ta'lim –tarbiya jarayonida ular bir qator umumpedagogik va uslubiy vazifalarni qo'yadi:

- Bolalarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ularning ongli dunyoqarashini shakllantirish.

- Bilimni chuqurlashtiruvchi va kengayishini kuchaytirish

- Bilimning amaliy yo'nalishini, yutuqlarga erishishini ta'minlash.

- Ta'lim-tarbiyaning yagona muhitini yaratish

- Pedagogik jarayonda ishtirok etayotgan barcha hamkorlar, o'zaro birligini oshirish.

- Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zi yashab turgan Vatanning madaniy merosini qo'llash va undan oqilona foydalanish.

Ta'lim mazmuni elementlari orasidagi aloqa, mashg'ulotlararo alohida jarayon sifatida qaralsa bunday yondashish "jarayonli yondashish" deb ataladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ilmiy bilimlarni integratsiyalash yangi darajaga ko'tariladi. Bu davrda mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatilishi natijasida integrativ mazmundagi yangi turdagi mashg'ulotlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning dastlabki ikki bosqichida kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirish, uning rivojlanishi uchun xuquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bulardan tashqari dastur talablaridan kelib chiqqan holda ta'limni rivojlantirish borasida salmoqli qadamlar tashlandi. Bu maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb muammolarini aniqlash va ularni xalq etishda yaqqol ko'rinadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning bilim saviyasi yanada yuksak, yanada teran, har bir soxada yetuk shaxs etib tayyorlash vazifasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Milliy-ma'naviy umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi mumkin emas.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da uzluksiz davom etadigan bir butun ta’lim-tarbiya jarayonini belgilovchi ta’limning birinchi bo’g’ini maktabgacha ta’lim deb ataldi. Birgina ushbu yondashuvning o’ziyoq bu ta’lim turiga har tomonlama ehtiyotkorlik, e’tiborlilik va mehribonlilik bilan qaramoqni talab etadi. Negaki, bugungi bolakay yoki qizaloq zimmasida XXI asrda kuchga to’lib, sog’lom, bilimli, aqlli bo’lib jamiyatimizning faol a’zolariga aylanishdek ulkan vazifa turibdi.

Ma’naviy – ahloqiy sifatlarni shakllantirish uzluksiz jarayon bo’lib, maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlash alohida ahamiyat kasb etadi. Psixologlarning ta’kidlashicha dunyoqarashning asosiy qismi mazmun va ko’lam jihatidan aynan maktabgacha ta’lim davriga to’g’ri kelar ekan. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni xalqning boy madaniy – tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari alohida ko’rsatib o’tilgan.

Bolalarga ilk yoshidan boshlab uyda, mehmonda o’zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinib-echinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo’lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o’rgatish. Shu odatlar bolani odobli- ahloqli, mehnatga layoqatli qilib tayyorlash mazmunining asosini tashkil etishi kerak. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch- quvvatni, bilimdonlikni, fidoiylik va vatanparvarlik bilan uyg’unlashtira olsak, bundan-da ziyoda qudratni topa olmaymiz.

Yoshlikdan bolalarda ma’naviy-ahloqiy sifatlarni integratsiyalashgan xolda tarbiyalab borishi uchun sharq mutafakkirlarining fikrlariga tayanmog’i lozim. Chunki ahloqiy pok, shaxsi go’zal bo’lgan insonning ma’naviyati ham yuksak bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov o’zbek xalqi ma’naviy me’rosining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati xususida so’z yuritib.. “Ulug’ bobokalonlarimiz ruhiga bashariyat tarixi va madaniyati xazinasiga katta hissa qo’shgan ulug’ ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib

bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongida mustahkam joy olishi – bu yangi zamonning yangi xususiyatidir” deb uqtiradi.

Ma'naviy-ahloqiy sifatlarni bolaning yoshligidan boshlab berib borish zarurligini barcha mutafakkir olimlarimiz ta'kidlab kelishgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Abu Shukur Balxiy bola tarbiyasi yoshligidan boshlanishi kerakligini shunday yozadi:

*Yoshlik chog'ida o'rganish bilan*

*Aql ham idrok topishing oson.*

*Hohlagan tomonga egib qo'yadi*

*Niholligida daraxtni bog'bon.*

*Qiyshig'ini hech kim to'g'rilay olmas,*

*Nihol ulg'ayib, bo'lganda yo'g'on.*

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' allomalarimiz yaratgan bebaho asarlar ma'naviyatimizning asosi va bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning negizi hisoblanadi. Ularning fikricha, inson quyidagi fazilatlarga ega bo'lsagina, fozillik, komillik pog'onasiga qadam qo'yadi:

1. Ilmdan orttirilgan hislat.
2. Ichki va tashqi ko'rinishdan topilgan haqiqat.
3. Aql tufayli hosil qilingan xulq-atvor.
4. Molu mulkdan ziyoda bo'lgan salomatlik. Bunday fazilatlar faqatgina ma'naviy-ahloqiy tarbiya zamirida aql- farosat, ilmu odob, hushfe'llik, poklik, halollik, vijdonlilik, mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlar yotadi. [8]

Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sino ham bolalar tarbiyasi haqida o'zining dono fikrlarini aytib o'tgan. U ta'lim-tarbiya va ahloqqa oid bir necha asarlar yaratgan. “Tadbir al-manozil”, “Risola fi ilm al-ahloq”, “Risola fi al- ahd”, “Kitob al-insof” shular jumlasidandir.

Ibn Sino bola tarbiyasining butun qiyin va murakkab tomonlarini yaxshi bilgan. U o'zining "Tib qonunlari" asarida bu masalaga " Tarbiya to'g'risida" degan alohida bir bob bag'ishlagan. Bunda u yosh bolalarda xarakterni qanday tarbiyalash kerakligi to'g'risida qimmatli fikrlar bayon qilgan. Yosh bolaning tarbiyasiga kattalarning ta'siri tez o'tishini olim alohida uqtiradi. Bolalar hamisha o'zidan kattalarga taqlid qiluvchan bo'ladi. Ular odobli va aqlli kishilarning ta'sirida yaxshi tarbiya topadi.

Shuning uchun ham Ibn Sino ularga shaxsan namuna ko'rsatish to'g'risida ota-onalarga va ular tarbiyachilariga maslahat beradi. Ular yosh bolalarga e'tibor bilan qarashlari kerak. Chidamlilik-inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. Aqllilik-biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat. Ziyraklik-sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat deb ta'rif beradi.

Ibn Sino o'z asarlarida insonlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlikka alohida ahamiyat berib, odamlarni bir-birlari bilan do'st inoq bo'lib yashashga, pastkashlikka olib keladigan adovatni yo'qotishga chaqiradi.

Hayotda o'z do'stiga mexribon bo'lish, qo'lidan keladigan yordamlarni ayamasklik, do'stidan nuqson va kamchiliklaridan yuz o'girmasklik, aksincha uni yo'qotishga harakat qilish kabilar Ibn Sinoning asarlarida keng o'rin olagan.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra kishi do'st tutinishining uch xil yo'li bor:

- Har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishini.
- G'oyaviy yaqinlik va dunyo qarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlik.
- Kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi, deb takidlaydi.

Ibn Sino chin do'stni ko'zguga taqqoslaydi. CHunki ko'zgu kishining haqiqiy borlig'ini ko'rsatadi. Kishi do'stidagi nuqsonlarni o'z vaqtida ochib tashlamasa, ro'y-rost gapirmasa, u o'z do'stlik burchini unitgan bo'ladi. SHunday

ekan biz bolalarni haqiqiy do'st tanlashga, ularni asrab-avaylashga, biron nojo'ya ish qilganda kamchiliklarini o'z vaqtida ochib tashlashga o'rgatishimiz lozim.

Olim bola xulqiga tavsif berib, quyidagilarni ta'kidlaydi: - "...mo" tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor;

Birinchi: Bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchi: Bolaning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan: g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli quritadi.

Ulug' Alisher Navoiy ta'kidlashicha, odob-odamning olijanob fazilatlaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'ladi. Bunday kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Odobli odam doimo do'stlarini hurmatida, izzatida bo'ladi. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, do'stlarni hurmat-izzat qilmoq xar bir odobli kishining burchidar.

Alisher Navoiy har bir kishidan yoqimli, nazokatli, ochiq chehrali va xushmuomala bo'lishni talab qiladi.

“Har kimgaki dahr ichra donolik erur,  
Halim ila ish anga majsis oroliq erur.”

Yirik ma'rifatparvar Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sog'lomligida hamda odobi va xushxulqida, deb biladi. Abdulla Avloniy til va so'z odobi xaqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta'riflaydi: «. . . so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar».

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'ri so'zlikni insonning eng yuqori sifatlaridan biri deb hisoblaydi va u to'g'rida shunday yozadi:

«Xaqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikka aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan

rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir...». U inson odobidagi hayo va iffatni yuqori baholaydi. Hayo deganda ishda, soʻzda odobga rioya qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, deb biladi.

Abdulla Avloniy ahloq— bu xulqlar majmuasidir, ammo yaxshi xulq oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Ularning shakllanishi uchun maʼlum bir sharoit tarbiya kerakligini gapiradi. U bola tarbiyasida, u oʻsayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida eʼtibor beradi va tarbiyaning bola kamolotida tutgan oʻrni toʻgʻrisida shunday deydi:

*Temirchining bolasi tarbiyat topsa bulur olim,*

*Buzilsa xulqi, Luqmon oʻgʻli boʻlsa, boʻlgʻusi zolim!*

Buyuk mutafakkir, fors-tojik adabiyotining klassiklaridan Abulqosim Farruxiy bola tarbiyasining qimmatini shunday taʼriflaydi:

*Yaxshi xulq shoxlik va katta mamlakatdan yaxshiroq,*

*Sof tabiat tilla gavxar konidan ham yaxshiroq.*

Voiz Koshifiy insonlarda oq koʻngillilik, bagʻriksnglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgoʻylik, sahiylik, vijdonlilik, irodalilik, qatʼiyatlilik kabi fazilatlar boʻlishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, deydi. Ammo xasislik, tamagirlik, ochkoʻzlik, dilozorlik, pastkashlik, tuhmatchilik, xoinlik, yolgʻonchilik kishilarni beburd, axloqsiz qilib qoʻyadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obroʻsizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, notoʻgʻri yoʻlga boshlaydi. «Pastkash, baxil odamdan yaxshilik kutish mevasiz daraxtdan meva kutishga oʻxshaydi», va

*«Yolgʻonchilik seni jarlikka yetaklaydi,*

*Rostgoʻylik esa baxtsizlikdan saqlaydi»*

deb taʼkidlaydi.

Abu Nasr Farobiy inson oʻzining yaxshi odobi bilan baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi.

Oʻrta Osiyo mutaffakirlaridan biri Yusuf Xos Hojibning asarlarida ahloq madaniyati keng oʻrin egallagan. Alloma aql va adolat, baxt-saodat, farovonlik

haqida gapirib, do'stlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, oddiylik kabi insoniy xislatlarning shaxs kamolotida muhim o'rin egallashini uqtiradi. Shuningdek "Hamma narsaning qoidasi tartibi, ta'limi bor, tartib- odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi" [9], deb ta'kidlaydi.

Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida ahloqiy tarbiya insoniy fazilatlarning ezgu maqsad yo'lida o'zaro muvofiqlashgan xoldagi ijodiy jarayoni sifatida baholanadi. Bu jarayonda ta'lim, xarakter va aql zakovatga alohida e'tibor berilib, ulardan har birining o'rni ta'kidlab ko'rsatiladi. Jumladan, ta'lim shaxsni ulug'lab, uning kamolotiga xizmat qilsa, yaxshi xulq xarakterni shakllantiradi, bezaydi, aql esa shaxs va uning xarakterini takomillashtirib, qalb va ruh tozaligini ta'minlaydi. Umuman ahloqiy yetuklikka qaratilgan barcha ijobiy sifatlarda ularning ega bo'lgan birorta ham salbiy jihatlari bo'lmasa, ular chinakkam va tugal fazilatlarga aylanadi. Chunonchi, aqlda-manmanlik, talantda-bahillik, vazminlikda-qasoskorlik, xulqda-tubanlik, sahiylikda- talon- tarojlik, umidda-faoliyatsizlik, qaramda-tamagirlik, bilimda-qalbakilik bo'lmasligi zarurligi qayd etiladi.

Hozirda ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlaydigan omillar yaratilgan. Darhaqiqat, yosh avlodning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi, uning maktabgacha ta'limda olgan bilim, ko'nikma va malakalariga bog'liq. Bolalikda olingan bilim qanchalik pishiq puxta bo'lsa, u shunchalik mustahkam bardoshli bo'ladi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota- ona zimmasiga uni sog'lom, aqlli, xushxulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'z navbatida jamiyat taraqqiyoti millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bandida bu boradagi kuzatish va umumlashtirishlarini tashkil etishga oid masalalar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish– ijtimoiy ehtiyoj sifatida yoritilgan.

## **1.2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ijtimoiy ehtiyoj sifatida**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur sohaning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi esa jamiyatda bozor ishlab chiqarishga asoslangan ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan va ijtimoiy munosabat mazmunida raqobat yetakchi o'rin egallayotgan mavjud sharoitda fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida o'tish davrida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy jihatdan muhofazalash boshqaruvda demokratik va insonparvarlik tamoyillariga amal qiluvchi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligiga alohida urg'u berar ekan, quyidagilarni qayd etadi: "Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi" [3, 10].

Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari (ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan yoshlar) jamiyat va davlat tomonidan alohida ijtimoiy muhofazalanishga muhtoj sub'ektlar sanaladilar. Mavjud sharoitda davlat tomonidan ularni ijtimoiy jihatdan muhofazalash yo'lida keng ko'lamli amaliy harakatlar tashkil etilmoqda. Biroq mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish, ularning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidagina g'amxo'rlik qilinishi yetarli emas. Ularning taqdiri uchun jamiyatning har bir a'zosi mas'ul bo'la olishi zarur. SHunday ekan, mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda davlat bilan birga keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlashga erishish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

"Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bo'lgan, hozir ham mavjud va keyin ham bo'ladi. Bunday hollarda

davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi ma'suliyatini o'z zimmasiga oladi.

Mavjud manbalarda “etimlik” yetimlar holati, ijtimoiy hodisa sifatida tadqin etiladi. Chunonchi, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “etimlik”ning “etimlarga xos bo'lgan hayot, yetim holati” ekanligi aytilsa, N.Egamberdieva, Z.Hoshimov, M.Mo'minova esa mazkur tushunchani “jamiyatda ota-onasidan judo bo'lgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa” deya talqin etadi. E.To'xtamurodov tomonidan olib borilgan tadqiqotda yetimlik ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etilib, unga xos bo'lgan xususiyatlar bayon qilinadi. Xususan: nazoratsizlik; kishi uchun ijtimoiy-ma'naviy to'siq; ma'naviy majruhlik; ijtimoiy himoyadan holilik; iqtisodiy nochorlik hamda jamiyat e'tiborini doim qaratishi shart bo'lgan hodisa [11, 27].

Manbalarda bildirilgan fikrlarga tayangan holda “etimlik”ning mohiyatini quyidagicha yoritish mumkin: yetimlik – ota-onaning yoki ulardan birining vafoti tufayli, shuningdek, ota-onasi yoki ulardan biri tirik bo'lgani holda farzandining tarbiyasi uchun ma'sul bo'lmaslik, unga vasiylik va g'amxo'rlik qilmaslik holatini ifodalovchi biologik, ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsning ruhiy va ma'naviy jihatdan to'laqonli kamol topishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga qo'shilgan holda ijtimoiy yetimlikni keltirib chiqaruvchi ko'plab omillar mavjudligini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mavjud manbalarni o'rganish, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi, ular mansub bo'lgan oilalarda qaror topgan muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, hayotiy intilish va maqsadlarini tahlil qilish natijasida jamiyatda ijtimoiy yetimlikni keltirib chiqaruvchilar omillar quyidagilardan iborat ekanligiga ishonch hosil qilindi:

- eng ezgu umuminsoniy va milliy ma'naviy-axloqiy qarashlarga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarganligi;
- G'arb va Sharq madaniyati sintezi bo'lgan “oraliq madaniyat”ning shakllanishi;
- ijtimoiy sub'ektlarning ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega emasliklari;

- ta'lim muassasalarida milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni targ'ib etishda rasmiyatchilikka yo'l qo'yilayotganligi, ta'lim oluvchilarni ularning mohiyati, mazmuni bilan tanishtirish o'rniga shaklga asosiy e'tibor qaratilayotganligi;

- pedagog xodimlarning milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar (urf-odatlar, an'ana, marosimlar)ning tub asosi, ular negizida muayyan xatti-harakatlarning aks etish sabablarini chuqur bilmasliklari;

- oilada er va xotinning, ayol va erkaklar vazifalarining o'zgarayotganligi, ular tutgan o'rinlarning almashayotganligi, o'g'il bolalarda oilaviy hayotni yo'lga qo'yishda yetakchilik qilish, asosiy ma'suliyatni o'z zimmasiga olish, qizlarda esa hayo, ibo, andishalilik va farosatlilik sifatlarining tarbiyalanishiga jiddiy e'tibor berilmayotganligi;

- ota-onalarning sog'lom turmush kechirishlari (spirtli mahsulotlar va narkotik moddalarni iste'mol qilishlari, tartibsiz jinsiy hayot kechirishlari);

- yoshlarda oilaviy munosabatlar, oilaviy hayotga ma'suliyatsiz yondashuvning qaror topayotganligi;

- ommaviy axborot vositalari tomonidan "erkin muhabbat", "ma'suliyatsiz erkinlik", "qisqa muddatlarda boyib ketish", "juda oddiy vaziyatlarda ham do'stga, oila a'zolariga, yaqinlarga hiyonat qilish" g'oyalari o'zida aks ettiruvchi g'oyaviy jihatdan sayoz, yuksak badiiylikka ega bo'lmagan, mahoratli ijro orqali yetkazib berilmagan "asarlar" sonining tobora ko'payib borayotganligi;

- yoshlarni fikrlashga, ijodkorlikka, yaratuvchilik va bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi ijtimoiy da'vatlar, targ'ibot ishlarining kutilgan natijalarni bera olmayotganliklari;

- o'smir va o'spirinlarning ongsiz ravishda Internet, mobil aloqa vositalarining salbiy ta'sir doirasiga tushib qolayotganliklari, yoshlar o'rtasida axloqiy tasvirlar, g'oyalarni targ'ib etuvchi tasvir, musiqa, qo'shik va kliplarning keng tarqalayotganligi.

Etimlikning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va iqtisodiy oqibatlari, jamiyatning yetimlarga bo'lgan munosabatini tahlil qilish natijasida unga xos bo'lgan xususiyatlarni sanab o'tish imkoniyati yuzaga keladi (1.1.3-rasm).

E.To'xtamurodov "Bolalar uylari" (hozirda "Mehribonlik" uylari) tarbiyalanuvchilarni ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaliklariga ko'ra ikki guruhga ajratadi. Ya'ni:

1. Axloqiy-ma'naviy xususiyatlarida ijobiylik yetakchilik qiladigan bolalar (ijodkor, ijrochi, mulohazakor, mehnatkash, oliyjanob, xushmuomala va boshqalar).

2. Ruhiyatida salbiy holatlar yuqori darajada bo'lgan bolalar (qaysar, indamas, qo'rs, jamoaga qo'shilmaydigan va boshqa bolalar).

Manbalarni nazariy tahlil qilish natijasi turli xalqlarda ota-onalar qarovisiz qolgan (etim yoki ijtimoiy yetim) bolalarga insonparvarlik munosabatida bo'lish an'anasining juda qadim zamonlardan shakllanganligini tasdiqladi. Bunday munosabat turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan.


Jumladan:

1) ota-onasidan ajralgan bolalar yaqin qarindoshlari tomonidan vasiylikka olinib, tarbiyalab voyaga yetkazilgan;

2) moddiy jihatdan ta'minlangan oilalar tomonidan ota-onasiz bolalar farzandlikka olingan;

3) balog'at yoshidagi ota-onasiz qolgan ("etim") bolalarga moddiy va ma'naviy jihatdan ko'mak berib kelingan;

4) ota-onasiz bolalar o'ziga to'q oilalar tomonidan ish bilan ta'minlanganlar;



**1.1.3-rasm. Ijtimoiy yetimlikning asosiy xususiyatlari**

Respublikada vasiylik va homiylik organlarining tavsiyalariga muvofiq yetim va ota-onalarning qarovsiz qolgan bolalar quyidagi holatlarda:

- ota-onalar vafot etganlaridan keyin;
- ular huquqiy layoqatga noloyiq deb topilganlarida;

- ota-onalar uzoq vaqt bedarak ketganlari, farzandlarini tarbiyalashdan bosh tortganlarida;
- tarbiya va davolash, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalaridan ota-onalar o'z farzandlarini olishdan bosh tortganlarida;
- ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarida Mehribonlik uylariga yuboriladilar.

“Bugungi kunda respublikada 21 ta Mehribonlik uylari, 85 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat, 23 ta sanatoriya tipidagi maktab-internatlarda 30.000 ortiq bolalar va o'smirlar tarbiyalanadilar.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining 13 foizi ota-onasiz va 54 foizi otasiz yoki onasiz sanalsalar, ulardan 23 foizi kam ta'minlangan oilalarning farzandlaridir. 10 foiz tarbiyalanuvchilarning ota-onalari turli ko'rinishlardagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar sanaladilar.

Tahliliy o'rganishlar natijalarining ko'rsatishicha, respublikada 9, 4 foiz oilalarda vasiylik ko'magiga muhtoj yetim-bolalar tarbiyalanmoqda. Ayni vaqtda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining 82,6 foizi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan, 8,0 foizi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bo'lsalar, 11,5 foiz tarbiyalanuvchi esa oila sharoitida kamol topmoqda. 40,1 foiz “qarovsiz bolalar” qarindoshlari va yaqinlari tomonidan zaruriy yordamni olishmoqda. Qarovsiz bolalarning “ko'cha bolalari” deb nomlanuvchi alohida toifasi ota-onalarining g'amxo'rliklari va ko'maklaridan mutlaqo mahrum sanaladilar. Chunki, ularning ota-onalari u yoki bu sababga ko'ra ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar. Rasmiy hujjatlarda keltirilgan ma'umotlarga ko'ra ularning soni 2012 yilda 81, 2015 yilda esa 107 nafarni tashkil etgan [12].

Mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy yetimlar soni ortib borishining oldini olish maqsadida keng ko'lamli amaliy harakatlar tashkil etilmoqda. Ichki ishlar organlari qoshida voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'limlari mavjud bo'lib, ularning sa'yi-harakatlari tufayli ijtimoiy yetimlar soni ortib borishining oldini olishda ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Pedagogik qarovsizlik, daydilik tufayli

“ijtimoiy yetim” maqomiga ega bo’layotgan bolalar hamda o’smirlarni aniqlash, o’z oilalariga qaytarish Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo’limlari faoliyatining asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ana shu bo’limlar tomonidan “birgina 2013 yilning o’zida 92 nafar ana shu toifadagi bolalar aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan to’laqonli kamol topishlari uchun zarur bo’lgan oila muhitiga qaytarilganlar.

Mutlaqo begona oilalar tomonidan ijtimoiy yetim maqomiga ega bolalar va o’smirlarni o’z qaramog’iga olish o’zbek xalqiga xos asriy qadriyatlardan biri bo’lib, ayni vaqtda ham ana shu an’ana davom etib kelmoqda. Masalani nazariy o’rganish natijalari 2013 yilning o’zida Surxondaryo viloyatida 46 nafar oila tomonidan yetim bolalar farzandlikka olingan.

2003 yilning 21 aprelida chiqarilgan Respublika Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug’iga ko’ra Toshkent shahrida joylashgan Mehribonlik uylari oliy ta’lim muassasalariga birlashtirildi. Shu yilning 16 mayida esa Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Mehribonlik uylarini Qoraqalpog’iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalariga birlashtirish to’g’risidagi buyruq imzolandi. Bundan tarbiyalanuvchilarga oliy ma’lumot olish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, ularning kelgusida malakali mutaxassis bo’lib yetishishlarini ta’minlash va kasbiy faoliyatlari orqali ijtimoiy-moddiy ta’minotga ega bo’lishlariga ko’maklashish maqsadi ko’zlandi.

Shaxs ijtimoiy muhitda va uning ta’sirida shakllanadi. Mazmuni va mohiyatiga ko’ra ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ko’rsatilayotgan ta’sirning ijobiy va salbiy bo’lishi sub’ektlar o’rtasidagi munosabatlarning o’zaro hamjihatlik, yordam, shuningdek, psixologik yaqinlik hamda hayotiy maqsadlar va e’tiqodlar birligi yoki aksincha, bir-birini tushunmaslik, bir-birini qabul qila olmaslik, bir-birini inkor etish, bir-biriga toqat qilmaslik (tolerantlik hissiga ega emaslik), shaxsiy qarashlarning bir-biriga mosligi yoki ziddligi, hayotiy maqsad va e’tiqodlar o’rtasidagi ziddiyatlarga bog’liqdir.

So'ngi yillarda insonni ijtimoiylashtirish (bu yerda shaxs emas, aynan inson nazarda tutilmoqda, binobarin, shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi, ya'ni ijtimoiylashgan insongina shaxs sifatida namoyon bo'ladi) va bu yo'lda salbiy ijtimoiy ta'sirlarni bartaraf etish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Insonni ijtimoiylashtirish uzoq muddatli, uzluksiz davom etuvchi, ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, uning butun hayotini qamrab oladi va bu jarayonda unda muayyan bilimlar, ijtimoiy axloq mezonlariga rioya qilish ko'nikmalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat munosabati shakllantiriladi. M.A.Galaguzova, L.V.Kolomiychenko, M.A.Kovalchuk [13]larning qayd etishlaricha, insonning ijtimoiylashuvi garchi uning butun hayoti davomida ro'y bersa-da, biroq, bu jarayonda eng qulay davr bolalik va yoshlik yillari hisoblanadi. Zero, aynan mana shu davrlarda inson ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi, ularga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va ularni muvaffaqiyatli tashkil etish tajribasini o'zlashtiradi.

Bizning nazarimizda, ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivoji, buning natijasida ijtimoiy sub'ektlarda yuzaga kelayotgan psixologik zo'riqish va uni bartaraf etishga bo'lgan kuchli ehtiyoj o'z-o'zidan insonni ijtimoiylashtirish jarayonida nafaqat sotsiologik va pedagogik, balki psixologik ta'limotlarga tayanish, ushbu fanlar o'rtasida integratsiyani qaror toptirish asosidagina samarali tashkil etilishi mumkin.

Barcha davrlarda ham ma'lum jamiyatda ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan yoshlar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar) mavjud bo'lishgan. Ularga nisbatan ijtimoiy e'tibor turli jamiyat, davlatlarda turlicha bo'lgan. Islom dini ta'limotida esa bu kabi shaxslarga nisbatan insonparvarlik g'oyalariga tayangan holda munosabatda bo'lish eng oliy sifat tarzida baholangan. O'zbek xalqi taraqqiyoti tarixida ham ushbu g'oyalarga og'ishmay amal qilib kelingan. Bu holat ayniqsa urush harakatlari olib borilayotgan vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani

yo'qotgan minglab bolalarning o'zbek oilalariga qabul qilinishi, o'ta og'ir sharoitda ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar-joylar bilan ta'minlash borasida ko'rsatilgan g'amxo'rlik yuksak insonparvarlikning yorqin namunasidir.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy hayotga tayyorlash muhim ijtimoiy maqsadlardan biri bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi yo'nalishlar ustuvor o'rin tutadi:

- ta'lim berish (tarbiyalanuvchilar ongida ilmiy bilimlarni hosil qilish);
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi asosida ijtimoiy-g'oyaviy e'tiqod va immunitetni shakllantirish, dunyoqarashni boyitish;
- ma'naviy-axloqiy sifatlar (mehnatsevarlik, odamiylik, tirishqoqlik, kamtarlik, atrofdagilarga mehr-muhabbatli, rahm-shafqatli, shuningdek, iymon-e'tiqod, qat'iy iroda va mustahkam xarakter)ni tarbiyalash;
- kasbga yo'naltirish (muayyan kasb-hunarlar sirlari, kasbiy faoliyatlarning asoslarini o'rgatish);
- ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish (sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqa almashuv, jamoa a'zolari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, o'zi mansub bo'lgan guruhlar (mikro, mezo va mikro guruhlar)ning a'zolari bilan ruhiy birlikka erishish)ga tayyorlash;
- shaxsiy hamda atrofdagilarning salomatligini muhofazalash malakalari (jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda, izchil, uzluksiz shug'ullanishlariga erishish, sog'lom turmush tarzi (spirtli ichimlik va narkotik moddalarni iste'mol qilmaslik, tamaki mahsulotlarini chekmaslik, noto'g'ri va tartibsiz jinsiy hayot kechirmaslik) ko'nikmalarini hosil qilish;
- huquqiy madaniyat unsurlari (ijtimoiy axloq me'yorlariga amal qilish, huquqbuzarliklarni sodir etmaslik, qonunbuzarlik, jinoyatchilik va ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lish)ni shakllantirish;
- atrof-muhit va tabiatga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish;
- psixologik xizmatni tashkil etish (psixologik toliqish va zo'riqishni bartaraf etish, ruhiy tetiklik, kelajakka ishonch hissiga ega bo'lish, shuningdek, jamoada sog'lom muhitni qaror toptirish (mehribonlik uylari rahbarlari, pedgoglari

va tarbiyalanuvchilarning bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, doimo o'zaro yordamga tayyor turishlariga erishish));

- oilaviy hayotga tayyorlash.

Mazkur yo'nalishlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish maxsus dastur va aniq rejalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ularni ishlab chiqishda mehribonlik uylarining ichki imkoniyatlari, pedagoglarning ish tajribalari va mahoratlari, shuningdek, ularning, ayniqsa, rahbar xodimlarning tashabbuskorligi, boshqaruv madaniyatiga egaliklari alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mehribonlik uylarining ijtimoiy tashkilotlar, jumladan, boshqa turdagi ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy muhofaza organlari, yoshlar, homiy, shuningdek, xalqaro homiy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikka erishish, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida ularning imkoniyatlaridan samarali foydalana olish ham kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Shunday qilib, insonni ijtimoiylashtirish murakkab, ko'pqirrali va uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bu jarayonda u ilmiy bilimlar, axloq mezonlari va ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, ularga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

### **1.3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish borasidagi xorijiy tajribalar mohiyati**

Har qanday jamiyat, har qanday mamlakatda tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarda u yoki bu sabab va sharoitlarga ko'ra ota-onalar qarovsiz qolgan bolalar mavjud bo'lib kelgan. Shunga ko'ra yetimlik ijtimoiy-tarixiy hodisa sanaladi. Yetim bolalar uchun mo'ljallangan muassasalarning rivojlanish tarixini o'rganish har qanday mamlakatda ro'y beradigan iqtisodiy qiyinchiliklar aholi turmush darajasining pasayishi hamda yetimlar, qarovsiz va jinoyatga moyil bolalar sonining ko'payishiga sabab bo'lishini ko'rish mumkin. Ayni vaqtda Rossiyada yetim, qarovsiz bolalar muammosi ijtimoiy-iqtisodiy tanglikning in'ikosi sifatida dolzarflik kasb etmoqda.

“O’rta asrlar Yevropasida cherkov ijtimoiy sub’ektlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlovchi maskan hisoblangan. Aholi cherkovlarga faqat ruhiy yordam olish uchungina emas, balki tibbiy va moddiy ko’mak so’rab murojaat qilishgan. Antik davrlardan buyon Yevropada ibodatxonalarga iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, tibbiy yordam ko’rsatilishiga muhtoj kishilar ko’mak so’rab murojaat qilishgan. Shuningdek, ota-onasiz qolgan go’daklar va bolalar ham ibodatxonalarining eshiklari oldiga qo’yib ketilgan.

Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640 yil ruhoniy Vantsento Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uylari juda mashhur bo’lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug’ullanuvchi ordenlar – xayriya yo’lida qilgan ishlari orqali keyinchalik mashhur bo’lib ketgan yirik cherkov tashkilotlari tuzila boshlagan” [14].

Rossiya tarixida 988 yilda feodal davlat tashkil topdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab, “etim” bolalarga davlat tomonidan g’amxo’rlik qilishga oid qarorlar qabul qilindi. Mazkur qarorlarasosida shu kunga qadar ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash ishlari olib borilmoqda. Manbalarda ko’rsatilishicha, “noqonuniy tug’ilgan yoki turli sabablarga ko’ra voz kechilgan go’daklar” uchun birinchi tarbiya uyi 1706 yilda Novgorodda, monastr qoshida ochilgan. Keyinchalik bu kabi tarbiya uylari boshqa Provoslav monastrlari va cherkovlari qoshida tashkil etila boshlandi. Ushbu tarbiya uylarining faoliyat yuritishi “olijanob shaxslarning himmatlari” hisobiga ta’minlanardi.

1715 yilda Pyotr I ning farmoniga ko’ra 10 ga yaqin tarbiya uylari (“etimlarni ovqatlantirish joylari”) ochildi. Pyotr I vafotidan keyin esa ular yopildi.

Ekatrina II davrida tarbiya uylari qaytadan tashkil etildi. Qurolicha homiyligida ma’lum muddatgacha bolalarni turli kulfatlardan asraydigan, so’ngra ularni “eng axloqli oilalar”ga tarqatadigan “tarbiya uylari” va “etimxonalar” faoliyat ko’rsatdi.

1763 yilning 1-sentyabrida “Moskva tarbiya uyining tashkil etish to’g’risida”gi Manifest e’lon qilindi. Qirolicha Ulizaveta II Moskvada bo’lgan

vaqtlarida tarbiya uylarida bo'lar va ularga yirik miqdordagi xayriyalarni taqdim etardi. Tarbiya uylariga xayriya qiluvchilar orasida taniqli davlat arboblari va Pravoslav cherkovining xodimlari ham bo'lardi.

Tarbiya uylarining bolalari soni yildan-yilga ortib borgan bo'lsa, ulardagi mavjud sharoit yomonlashdi. Zerikarli holatning mavjudligi, oziq-ovqatning yetishmasligi, bolalarga g'amxo'rlik hamda tibbiy yordamning ko'rsatilmasligi favqulotda tarbiyalanuvchilar o'limining ko'payishiga olib keldi.

“Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari Kesariya shahrida yepiskop Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Yevropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i shundaki, bu uylarda faqatgina bolalarga g'amxo'rlik qilmasdan, profilaktika ishlari ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni boshqa oilalar tarbiyasiga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan”.

Keltirilgan fikrdan anglanganidek, ibodatxonalarning ijtimoiy tarbiya jarayonida ishtiroklari keng ko'lamlil bo'lgan. Ta'bir joiz bo'lsa, ularning bu boradagi faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- 1) bolalarni tarbiyalashda onalarga g'oyaviy-metodik yordam ko'rsatish;
- 2) ota-onasiz qolgan yoki ularning moddiy va ruhiy ko'maklaridan mahrum bo'lgan bolalarning o'zga oilalar tomonidan farzandlikka qabul qilinishlarini ta'minlash;
- 3) o'zga oilalar tomonidan farzandlikka olingan bolalarning tarbiyasi doimiy ravishda nazorat qilib borish (demak, ularning kamol topishlari, ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishlari, mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, mustakil shaxs sifatida shakllanishlari yuzasidan monitoring olib borish);
- 4) ko'cha bolalari, jinoyat qilishga moyil qarovsiz bolalar ularga diniy g'oyalar to'g'risidagi bilimlarni berish asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan qayta tarbiyalash;
- 5) bemor va nogiron bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularni parqarishlash;

6) nochor oilalar, och va muhtoj bolalarni oziq-ovqat va kiyim-kechaklar bilan ta'minlash [15].

Bir qator mamlakatlarda XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida asosan cherkovlar qoshida ota-onasiz qolgan yoki qarovsiz bolalarni qabul qiluvchi, ularni vaqtinchalik bo'lsa-da, oziq-ovqat, kiyim-bosh va turar-joy bilan ta'minlash ishlari yo'lga qo'yila boshlandi. Keyinchalik xayriya tashkilotlari bunday vazifalarni o'z zimmalariga olishgan. Ayni vaqtda ham ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida xayriya tashkilot (jamiyat, uyushma)lari tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tashkilotlardan biri Buyuk Britaniyada faoliyat yurituvchi "Bolalarni qutqarish" tashkiloti bo'lib, mazkur tashkilot ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan bolalarni ta'lim muassasalariga jalb etish, ularga ta'lim berish vazifalarinigina qilib qolmay, shu bilan birga ularning ruhiyatini o'rganish asosida ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalarini ham tadqiq qilib kelmoqda.

XIX asrning birinchi yarmida ota-onalar qarovsiz qolgan bolalarga ko'maklashishga qaratilgan harakat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi va siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Biroq, shu bilan birga davlat har qanday xayriya faoliyatini ma'lum darajada cheklashga ham intildi. Qirolicha Mariya davrida tarbiya uylari, bolalarni qabul qilish joylari va boshqalarni tashkil qilish harakati yangi maqom – qirolicha devonxonasi IV bo'limi statusini oldi. 1802 yilda Qirollik insonparvar jamiyati tashkil etilib, bu jamiyat aholining kam ta'minlangan bolalarga yordam ko'rsatish ishlarini olib bordi. 1829 yilda Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Qashshoqlar to'g'risidagi Nizom loyihasi" qabul qilindi. Mazkur loyihaga ko'ra guberniya vasiylik Qo'mitalari tashkil qilindi va ular tomonidan 8 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar va 14 yoshgacha bo'lgan qizlarni oilalar hamda tarbiya uylariga tarqatish yo'lga qo'yildi.

Bolalar uylarini tashkil etishda V.F.Odoevskiy katta rol o'ynadi. U 1830 yilda bolalar uylarini tashkil etish maqsadida keng ko'lamli targ'ibot ishlarini olib bordi. 1937 yilda "Bolalar uylarining bosh vasiy Qo'mitasi"ni boshqardi va "Bolalar uylari to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqdi. V.F.Odoevskiyning so'zlariga

ko'ra bolalar uylari "faqatgina turar-joy bo'lib qolmasdan, tarbiyalanuvchilarning tarbiyasi uchun javobgar" muassasa bo'lib qolishi lozim edi. Biroq, arxiv materiallarining guvohlik berishicha, bolalar uylarida ahvol nihoyatda yomon bo'lib qolaverdi. Masalan, bir yilda bolalar uylariga 80-90 bola qabul qilinsa, xuddi shuncha nafar tarbiyalanuvchilar vafot etardilar. Bolalar uylari faoliyatida ko'zga tashlanadigan bu kabi kamchiliklar ular faoliyatining to'xtatilishiga olib keldi.

Olib borilgan tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ayrim xalqlar tarixida XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar ota-onalar qarovsiz, yetim qolgan bolalar tarbiyalanuvchi maxsus muassasalar mavjud bo'lmagan. Misol uchun, Chuvashiya aholisida ota-onasiz qolgan bolalarni o'zga bir oila tomonidan boqib olinishi an'ana bo'lib kelgan. Buning bir necha sabablari bo'lgan. Jumladan:

1) chuvashiya xalqi o'rtasida bolalar o'limi yuqori bo'lganligi bois oilalarda farzand tug'ilishi Yaratganning in'omi sifatida qabul qilingan;

2) iqtisodiy (qo'shimcha ishchi kuchi va yerga ishlov beruvchi shaxsga ega bo'lish) va madaniy-diniy (avlodlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash, Yaratganning bolasiz oilalarga ko'rsatgan marhamati) omillarga ko'ra ota-onasiz bolalar o'zгалar tomonidan farzandlikka olinganlar;

3) chuvashiya xalqi asrlar davomida quyidagi g'oyaga qat'iy amal qilib kelgan: bolaning tarbiyasi uchun eng qulay muhit – bu oila muhiti hisoblanadi; shaxs faqat oila muhitidagina axloqiy, jismoniy, mehnat va hissiy sifatlarni o'zlashtirishi mumkin.

Rossiyada kapital ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi oqibatida ayollarning yollanma mehnatga jalb etilishi, ish sharoitlarning yomonligi, uy-joy yetishmovchiligi, aholi o'rtasida, ayniqsa, yoz mavsumida turli yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi va o'z vatida tibbiy yordamning ko'rsatilmashligi yetim bolalar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida davlat tomonidan ota-onasiz va qarovsiz bolalarni aniqlash, ular uchun tarbiya uylarini tashkil etish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishini taqozo etdi.

Chuvashiyada yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar boshqa hududlarga nisbatan sekin rivojlandi. Bu yerda ishlab chiqarish munosabatlari agrar xususiyatga ega bo'lganligi sababli hosil bo'lmagan yillarda aholi o'rtasida ommaviy qashshoqlik yuza keldi. Natijada bolalar hayoti va sog'ligi ham yomonlashdi. Davlat va jamiyat bolalar hayotini yaxshilashg, ular o'rtasida turli kasallik va o'lim hodisalarining yuz berishiga qarshi kurashish yo'lida amaliy choralarni belgilashga majbur bo'ldi. Rossiyada bu davrda bolalarning ijtimoiy muammolarini hal qilish bilan shug'ullanuvchi muassasalarni tashkil etish yo'llari izlandi va bolalar internatlari, uylari, maxsus yaslilar va bolalar bog'chalari tashkil qilindi.

Yadrinskiy, Cheboksarskiy va Sivilskiy uездlarining boshliqlari tomonidan berilgan ma'lumotlarga qaraganda, 1889 yilda qishloqlardan bolalar uylariga ota-onasiz qarovsiz bolalarni yuborish hodisasi kuzatilmagan.

XIX asr o'rtalarida Qozon diniy Konsistoriyasi tomonidan tarqatilgan buyruqqa ko'ra “yangi monastrlar qoshida xayriya yoki tarbiya muassasalari”ni tashkil etish aytilgan edi. Ushbu asrning ikkinchi yarmida ularning faoliyatini asosan xayriya ishlari tashkil etdi.

Rossiyada 1891 yildan tarbiyalanuvchilarga diniy tarbiya berish bilan birga ularni sabzavotchilik, bog'dorchilik, hunarmandlik va boshqa turdagi faoliyatlarni olib borishga o'rgatuvchi bolalar uylari tashkil etildi.

1898 yilda esa qirolicha Mariya Fedorovnaning ko'rsatmasiga binoan chekka qishloqlarda tarbiya uylarini tashkil etishni ta'qiqlash to'g'risidagi 1828 yilda qabul qilingan Qonun bekor qilindi. Bu esa Rossiyaning chekka o'lkalaridan, qishloqlardan qarovsiz bolalarning poytaxtga “oqib kelishlari”ning oldini olib, turli shahar va qishloqlarda xayriya jamiyatlarining tashkil etilishini ta'minladi. XIX asrning so'nggi o'n yilliklarida Rossiyaning chekka viloyat va o'lkalarida, jumladan, Chuvashiyada bolalar uylari ochildi. Dastlabki bolalar uylarining faoliyati 1884 yilda Alatirda, 1891 yilda Yadrinda, 1896 yilda Shixazana Sivilskiy uездida, 1900 yilda esa Sivilsk va Chebaksari shaharlarida yo'lga qo'yilib, ularda tarbiyalanuvchilarda mehnat qilish, qishloq xo'jaligini yuritish ko'nikmalari

shakllantirildi. Bu kabi muassasalarda 6 yoshga to'lgan va undan katta yoshligi bolalargina ota-onalar, turli toifadagi shaxslar, xayriya va qishloq jamoalarining so'rovlariga muvofiq qabul qilinardilar.

Tarbiyalanuvchilar bolalar uylarida qat'iy kun tartibiga amal qilardilar. Ertalabki yo'qlovdan keyin, albatta, ibodat qilindi. Katta yoshli tarbiyalanuvchilar mashg'ulotlar shug'ullanishayotgan yoki ustaxonalarda ishlayotgan vaqtda kichik yoshli tarbiyalanuvchilar turli o'yinlarni o'ynardilar. Ularga yoshlariga muvofiq turli voqealar hikoya qilib berilar, atrof-muhitga oid eng oddiy tushunchalar berib borilardi. Suhbatlarning asosiy mavzulari hayvonlar va qushlar hayoti, qishloq xo'jaligi o'sitmliklari, manzarali gullar va ularning tabiatdagi o'rni haqida bo'lardi. Tarbiyalanuvchilar, shuningdek, diniy va axloqiy qo'shiqlarni ijro etishni o'rganardilar.

Bolalar uylarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yoshi inobatga olinmas edi. Ular turli hunarmandchilik, qo'l mehnati va maishiy-xo'jalik ishlari: tikish. To'qish, supurish, dazmollash, oshxonada navbatchilik qilish, xonalarni tozalash, ovqatlarni tayyorlash va boshqalarni bajarardilar. Yozda esa meva va poliz ekinlarini parvarishlardilar, yer maydonlariga ishlov berardilar.

XIX asrning oxirlariga kelib, tarbiya uylari faoliyatida "ustoz-shogird" an'anasi shakllandi. Ayrim tarbiya uylarining qoshida maktablar ochildi va tarbiyalanuvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida ularga hunarmandchilik sirlari o'rgatila boshlandi. Biroq, barcha tarbiya uylari ham ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning hammasini qabul qilish imkoniyatiga ega emas edi.

Birinchi Jahon hamda Fuqarolik urushlari ota-onasiz bolalar sonining ortishiga sabab bo'ldi. 1921 yilda ularning soni 4,5 millionga yetdi. Ommaviy bolalar qarovsizligini bartaraf etish uchun taxminan 15 yil talab etildi. Bolalar qarovsizligi muammosini hal qilish uchun davlat va jamiyat tomonidan katta kuch talab qilindi.

1919 yilda "Bolalarni himoya qilish Kengashini tuzish to'g'risida"gi dekret e'lon qilindi. Mazkur kengashga A.V.Lunacharskiy rais etib tayinlandi. Kengash bolalarni "ovqatlantirish mumkin bo'lgan hududlar"ga evakuatsiya qilish, umumiy

ovqatlanishni tashkillashtirish, oziq-ovqat va moddiy jihatdan ta'minlash kabi ishlarni amalga oshirardi. Joylarda Kengash faoliyati Butunittifoq Favqulotda holatlar Komissiyasi (Vsesoyuznaya cherezvychaynaya komissiya – VCHK) tomonidan nazorat qilib borildi.

1920 yilda hududlar bo'yicha ta'lim bo'yicha Xalq Komissariyatining qarori tarqatildi. Unda maxsus bolalar militsiyasini tuzish, ota-onalar qarovsiz qolgan bolalarning tekin ovqatlanishlarini tashkillashtirish, ularni davolash, maxsus bo'limda qarovsiz bolalarning qabul qilinishini yo'lga qo'yish zarurligi ko'rsatilgan edi. 1921 yilda esa BMIK (VTSIK) qoshida bolalar hayotini yaxshilashga mas'ul Komissiya tashkil qilinib, mazkur komissiyaga S.Dzerjinskiy rais etib tayinlandi. Komissiya tarkibiga ta'lim, sog'liqni saqlash va ishlab chiqarish Xalq Komissariyatlari, ishchi-dehqon inspeksiyasi hamda Favqulotda holatlar Komissiyasining raislari kiritildi.

Komissiya aholiga murojaat qilib, qarovsiz bolalarga yordam ko'rsatishga chaqirdi. Bolalar qarovsizligiga barham berish yo'lidagi faoliyat davlat va mahalliy organlar, shuningdek, jamoat hamda xayriya tashkilotlarining mablag'lari hisobiga tashkil etildi.

Asosiy ish shakli internat tipidagi muassasalarga jalb qilingan qarovsiz bola va o'spirinlarni aniqlash bo'lgan maszkur komissiya qoshida qabul qilish-tarqatish bo'limlari tashkil qilindi. Bu kabi bo'limlarda qarovsiz bolalarning to'rt oy muddatda pedagoglar va vrachlar kuzatuv ostida bo'lishlari ta'minlandi. Ko'rsatilgan muddat ichida qarovsiz bolalarning maxsus muassasalarga doimiy yashash uchun yuborish, ish bilan ta'minlanishlarini tashkil etish hamda ota-onalar yoki qarindoshlariga yuborish masalalaridan biri hal qilar. "Pedagogik entsiklopediya"da ko'rsatilishicha, tarbiya uylarida 1917 yilda 30 ming, 1919 yilda 125 ming, 1921-1922 yillarda esa 540 ming bolalar tarbiyalandilar.

1921 yilda yuz bergan qurg'oyachilik va buning oqibatida kelib chiqqan ommaviy ocharchilik tufayli ta'lim bo'yicha Xalq Komissariyati qoshida Bolalar Favqulotda Komissiyasi (BFK – DCHK) tashkil etildi. Komissiya bolalar o'rtasida ocharchilikka qarshi kurashdi. Shu yillarda "Bolalarning do'stlari" jamiyati tuzildi.

Jamiyat bolalar uchun oromgohlar, tunash uchun yotoqxonalar hamda ishlash uchun ustaxonalar tashkil qildi. Jamiyat o'z klublari, oshxonalar va qabulxonalariga ega edi.

1925 yilda sobiq Ittifoq Xalq Komissariyati va BKP MK tomonidan “Bolalar qarovsizligi va jinoyatchiligini bartaraf etish to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror talablarini bajarish hamda tarbiya uylarida qarovsiz bolalar soni ko'payishining oldini olish maqsadida oilalar tomonidan ularning farzandlikka olish harakati keng ommalashdi.

Bolalar qarovsizligining “yangi to'lqini” Ikinchi Jahon urushi yillarida yuzaga keldi. 1950 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha 636 ming tarbiyalanuvchini o'z ichiga olgan 6543 ta bolalar uylari faoliyat ko'rsatdi. Oradan sakkiz yil o'tgach, bolalar uylarining soni 4034 mingga, tarbiyalanuvchilar soni esa 375 ming nafargacha kamaydi.

Bugungi kunda Rossiyaning o'zidagina 1,5-2,5 million bolalar ta'lim muassasalariga jalb etilmayotganligi aytilmoqda. Bolalar uylarida qarovsiz bolalarni qabul qilish, reabilitatsiya markazlari, qabul qilish-tarqatish bo'limlari orqali hisobga olingan bolalar bilan qo'shib hisoblanganda 3.000.000 tarbiyalanuvchi mavjud. Bir millionga yaqin qochoq bolalar esa ta'lim olish imkoniyatiga ega emas [16].

Bugungi kunda Rossiya Federativ Respublikasida ota-ona qarovsiz qolgan (“etim”) bolalar muammosi eng katta ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda bu mamlakatda “etimlik”ning uchinchi to'lqini yuzaga kelgan. Bu borada birinchi to'lqin Birinchi Jahon hamda fuqarolar urushi, ikkinchi to'lqin – Ikkinchi Jahon urushi, uchinchi to'lqin esa tuzumlar o'zgarigi – “o'tish davri” davrida yuzaga keldi.

1945 yilning may oyida Rosiyada 678 ming yetim bolalar bo'lgan bo'lib, ularning aksariyati ota-onasiz edilar. Bugungi kunda esa rasman qayd etilgan 700 mingdan ortiq yetim bolalardan ko'pchiligining ota-onalari hayot.

Ziryansk (Rossiya Federativ Respublikasi) bolalar uyida patronat tarbiyasining rivojlanish tarixi 2002 yildan boshlangan. Jahon va hatto Rossiya

tajribasidan farqli ravishda patronat oilalarga ota-onasiz, yetim bolalar nafaqat maktabgacha tarbiya va maktab yoshidan emas, asosan, 14-16 yoshdan beriladi. 2002 yilning oktyabr oyida Tomsq viloyati ma'muriyati umumiy ta'lim departamenti negizida patronat tarbiyasini tashkil etish yuzasidan tajriba sinov maydonlari tanlandi. Grant (loyiha) mablag'lari hisobiga yetim-bolalarni oilalarga joylashtirish harakati yo'lga qo'yildi. O'tgan yillar mobaynida bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan mazkur harakat o'zining ijobiy natijalarini berdi.

Buyuk Britaniyada 2007 yilda xayriya harakatlari amalga oshirila boshlanganligining 410 yilligi nishonlandi. Ushbu mamlakatda xayriya faoliyati sud tizimi hamda qonunchilik loyihalari asosida muntazam ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Tyudorlar oilasi qishloq xo'jaligi inqirozi hamda shahar aholisi sonining keskin oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ijtimoiy qo'zg'olonning oldini olish uchun 1597 yilda "Xayriya mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi akt" ishlab chiqdilar. 1601 yilda mazkur hujjat qayta ko'rib chiqildi. Xuddi shu davrda xayriya mablag'larini haqiqatda qashshoqlikda kun kechirayotgan shaxslarni aniqlash, shuningdek, ishlash layoqatiga ega bo'lgan holda mehnat qilmaydigan kimsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash maqsadida "Qashshoqlik to'g'risida"gi Qonun ham tayyorlandi. Ushbu qonun hujjati 1948 yilga qadar rasmiy qonunlar to'plamida saqlanib kelindi.

1601 yilda qayta ko'rib chiqilgan "Xayriya mablag'laridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan vazifalar belgilab berilganligini ko'rish mumkin. Unga ko'ra xayriya mablag'lari quyidagilarga sarflangan: keksalar, yordamga muhtoj va qashshoq kishilarga, kasal va ko'makka muhtoj askar hamda dengizchilarni qo'llab-quvvatlashga, ta'lim olishlari uchun o'quvchilar, universitetlarning olimlariga, ko'priklar, portlar, to'g'onlar, dengiz bo'ylarida joylashgan cherkovlar va yo'llarning ta'mirlanishiga, yetimlarga ta'lim berish va ularni qo'llab-quvvatlashga, xayriya yordamlarini ko'rsatishga yoki ularni kchaytirishga, hukumat uylari holatini saqlash va tartibga

solishga, qashshoq ayollarning turmushga chiqishlariga, yosh savdogarlar hamda hunarmandlar, shuningdek, ishi yurishmayotgan yoshlarga, asirga tushganlar yoki mahbuslarni qutqarib olishga, qashshoq aholi turmush tarzini yaxshilashga, askarlarni qismlarga jo'natishga va boshqa soliqlarga.

Tyudorlar davrida ham xayriya mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, ularni o'zlashtirish holatlari ko'zga tashlangan. 1601 yilda qayta ko'rib chiqilgan Qonunga muvofiq xayriya mablag'larini zarur maqsadga yo'naltirilishini nazorat qiluvchi komissarlar tarkibi tayinlangan. Biroq, mazkur organ rahbarlarining doimiy almashishlari tufayli XVII asrning oxiriga kelib, organ faoliyati tugatilgan.

1736 yilda "Mortmeyn Qonuni" ("mortmeyn" – so'zma-so'z tarjima qilinganda "o'lik qo'l" manosini anglatadi) qabul qilinib, unga asosan merosxo'rlarning manfaatlari himoya qilindi. Agarda meros meros qoldiruvchi hayotining so'nggi yillarida qoldirilmagan bo'lsa, meros qilib qoldirilgan yer va boshqa mablag'lar qonuniy emas deb topildi [17].

Germaniya davlat boshqa mamlakatlar bilan qiyoslaganda eng namunali ijtimoiy ta'minot tizimiga ega sanaladi. Mazkur tizimning asosi Fon Bismark davrida qo'yilgan edi. Unga ko'ra baxtsiz hodisalar, turli kasalliklar hamda keksayganda mehnatga layoqatsizlik uchun kafolatli to'lovlar amalga oshirilgan. 1919 yildan boshlab esa ishsiz uchun ham davlat tomonidan to'lovlar amalga oshirib kelinmoqda. Zamonaviy ijtimoiy yordam tizimining shakllanishida Elberfeldt tizimining tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizim nomi ijtimoiy yordam amalga oshirilgan shahar nomidan kelib chiqqan bo'lib, XIX asrning o'rtalarida butun mamlakatga yoyilgan. Tizimning asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

- ijtimoiy yordamning markazlashtirilishi hamda har bir hududning individual masalalarni ko'rib chiqishdagi mustaqilligi;
- yordamga muhtoj har bir kishiga ijtimoiy yordamning individual amalga oshirilishi;
- qashshoqlikni tan olish ishida jamiyat har bir qatlamining birdek faol jalb etilishi.

Vaqt o'tishi bilan ijtimoiy yordam ko'rsatishning usullari va shakllari o'zgargan bo'lsa-da, biroq asosiy tamoyillar mohiyati o'zgarishsiz saqlab qolingan.

“Ijtimoiy jamiyat” tushunchasi ilk marta Germaniya Federativ Respublikasining 1949 yil 23 mayda qabul qilingan Konstitutsiyasida ilk bor qo'llanilgan. Ayni vaqtda ijtimoiy yordam Germaniyada ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda ko'rsatiladigan ijtimoiy kafolatlarning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu davlatda byudjet mablag'lari hisobiga ijtimoiy yordam oladigan tashkilotlar orqasida yetim va ijtimoiy yetim bolalar tarbiyalanadigan maktablar, internatlar hamda muassasalar ham o'rin olgan [18-34].

AQSH ham aholini ijtimoiy himoyalash, shu jumladan, yetim va ijtimoiy yetimlarni davlat qaromog'iga olish, ularga ta'lim hamda tarbiya berish borasidagi ijtimoiy himoyaning Milliy tizimi doirasida amalga oshiriladi. Mazkur tizimga o'tgan asrning 30-yillarida, ya'ni 1935 yilda Franklin Ruzvel'tning Prezidentligi vaqtida asos solingan. Tizim negizida amerikaliklarni muvaffaqiyatlarga undovchi, o'z oilalarining farovonligi uchun har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan g'oyalar o'rin olgan. Ijtimoiy himoyaning amerikacha tizimi ikki aniq yo'nalishga asoslanadi: 1) ijtimoiy kafolatli to'lovlar tizimi; 2) ijtimoiy yordam tizimi.

AQSHda juda ko'plab ijtimoiy yordam dasturlari ishlab chiqilgan va ularning g'oyalari amaliyotga og'ishmay tadbiiq etib kelinmoqda. Ana shunaday dasturlardan biri – bu yetim va ijtimoiy yetimlarning davlat muhofazasiga olinganligi, ularning ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan jamiyat e'tiborining qaratilganligini ifodalovchi “Xedstart” dasturi sanaladi [19-29].

Ukraina Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008 yilning 9 aprelida “Ukraina vazirlar Mahkamasining 2005 yil 25 avgustdagi 823-sonli Qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq yetim bolalar hamda ota-ona qarovidan mahrum bo'lgan bolalar uchun hukumat tomonidan doimiy berib boriladigan nafaqa miqdori oshirilib, 1590 grivenga yetkazildi. 2007 yilda bu toifa bolalar uchun beriladigan nafaqa miqdori 795 grivenni tashkil etar edi [20].

Shunday qilib, aksariyat rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Rossiya FR, Germaniya FR, AQSH hamda Ukraina Respublikasi misolida aholi, shu jumladan, ota-ona qarovsiz qolgan va “ijtimoiy yetim” maqomiga ega shaxslarga ko’rsatiladigan ijtimoiy yordamning mukammal tizimi ishlab chiqilganligini ko’rish mumkin. Tizim doirasida zamonaviy sharoitda ijtimoiy yetimlarni moddiy, ma’naviy va ruhiy jihatdan qo’llab-quvvatlashning yangi shakllari tarkib topayotganligi davlat va jamiyatning ular taqdiriga befarq emasligini ko’rsatuvchi yorqin dalildir. Mazkur mamlakatlarning amaliyotida qo’llanilayotgan ijtimoiy tez yordam markazlarining O’zbekiston sharoitida tashkil etilishi ham yetimlar va ijtimoiy yetimlar sonining sezilarli ravishda kamayishiga yordam beribgina qolmay, shu bilan birga ularni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

### **Birinchi bob bo’yicha xulosalar**

1. Nazariy o’rganish zamonaviy sharoitda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish ularni komil inson sifatida shakllantirishning muhim asosi ekanligini tasdiqladi. “Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilarini turli salbiy ijtimoiy ta’sirlardan himoyalash, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida yagona tizimni yaratish o’ziga xos dolzarblik kasb etadi.
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o’smirlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda biologik va ijtimoiy omillarning ta’sirlarini inobatga olish lozimligi muassasalar faoliyatini kuzatish asosida to’la tasdiqlandi.
3. Rossiya FR, Germaniya FR, AQSH hamda Ukraina Respublikasi kabi davlatlarning tajribasini o’rganish ularda aholi, shu jumladan, ota-ona qarovsiz qolgan va “ijtimoiy yetim” maqomiga ega shaxslarga ko’rsatiladigan ijtimoiy yordamning mukammal tizimi ishlab chiqilganligini tasdiqladi. Tizimning muhim xususiyatlaridan biri – bu zamonaviy sharoitda ijtimoiy yetimlarning moddiy, ma’naviy va ruhiy jihatdan qo’llab-quvvatlanayotganligi sanaladi. Mazkur mamlakatlarda ayni vaqtda ijtimoiy

tez yordam Markazlarining tashkil etilayotganligi yetimlar va ijtimoiy yetimlar sonini sezilarli ravishda kamaytiribgina qolmay, shu bilan birga ularni ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish borasidagi xorijiy tajribalar mohiyatining yangi istiqboli yaaratilayotganligining isbotidir.

## **II BOB Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning shart-sharoitlari**

### **2.1. Tarbiyalanuvchi o'smirlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning Shakllantirishda - milliy qadriyatlar**

Tajriba-sinov ishlari davrida tarbiyalanuvchilarga milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar berilib, ular asosida amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – bu tarbiyalanuvchilarning etnik-milliy kelib chiqishi nuqtai nazaridan ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sanaladi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan deyarli barcha Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari turli millat va elatlarga mansubdir. Tarbiyalanuvchilarning baynalmilallik ruhida tarbiyalanishlari, ularda tolerantlik hissining shakllanishi ijobiy holat, albatta. Biroq, psixologik nuqtai nazaridan shaxs o'zida milliy ruhiyat, milliy mentalitet xususiyatlarini ifodalay olishi ham zarur. Shu sababli mazkur muassasalarda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mazkur masalaning ijobiy yechimini topish chora-tadbirlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Tajriba-sinov ishlarini olib borilgan Mehribonlik uylarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasidan tarbiyalanuvchilar o'rtasida milliy qadriyatlar va ular mohiyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarning o'rin olishiga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxslararo munosabat va muloqotni to'g'ri tashkil etishda salomlashish qoidalaridan xabardor bo'lish va ularga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqligi tushuntirib borildi. Tushuntirishlar orqali tarbiyalanuvchilarning salomlashishga oid qoidalardan xabar bo'lishlariga erishildi:

1. Islom dini g'oyalariga ko'ra salom berish sunnat (qarz), unga javob qaytarish (alik olish) farz sanaladi.

2. Hadislarda tanish-notanish musulmonlarning bir-birlariga tez-tez salom berib turishlari ular o'rtasida oqibatni yuzaga keltiruvchi, uni mustahkamlovchi vosita ekanligi aytiladi.
3. Milliy tarbiya xususiyatlariga ko'ra salom berishda chehraning ochiq bo'lishi, salomning samimiyligi muhim ahamiyatga ega.
4. Salomlashishda o'ng qo'lni chap ko'krakka qo'ygan holda "Assalomu alaykum" deyish eng go'zal deya baholanadi.
5. Alik olganda ham javobni to'la aytish, ya'ni "Valaykum assalom" deyish maqsadga muvofiqdir.

Suhbatlar jarayonida tarbiyalanuvchi o'smirlar qanday vaziyatlarda salomlashmaslik kerakligidan ham xabardor qilib borildilar. Bular quyidagi vaziyatlardir: hammomda, hojatxonada va qabristonda kishilarning bir-birlari bilan salomlashishlari nojoizdir. Shu o'rinda hadislar, Sharq mutafakkirlarining qarashlari hamda zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda bugungi kunda yoshlar o'rtasida keng urfga kirgan o'pib salomlashish xususida ham to'xtalib o'tildi.

Erkak va ayollarning o'zaro salomalashishlari chog'ida ham muayyan qoidalarga rioya qilish yaxshi xulqqa egalikni ifodalaydi. Jumladan, salomlashish chog'ida ayol kishi qo'l uzatsagina qo'l berib salomlashish mumkin. Agarda bu jins vakillari buni xohlashmasa, shunchaki samimiylik (imkon qadar tabassum) bilan og'zaki salom berishning o'zi kifoya. Qo'l berib salomlashishda ham: qo'lni siqmaslik, siltamaslikka, akchinch, samimiy, iliq salomlashishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shaxslararo munosabat va muloqotni to'g'ri tashkil etishda shaxsning o'zini tuta olishi ham muhimdir. Bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish suhbat yoki muloqot jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi:

- kiyimini, o'zini tartibga keltirish, galstugi yoki soch turmagini to'g'rilash (bunday xatti-harakatlarni uyda, mehmonxonada va maxsus joylarda sodir etish mumkin);

- soch tarash va hurpaytirish;

- jimjiloqda tish tozalash;
- barmoq qirsillatish;
- kaftni bir-biriga ishqash;
- kiyimni tortqilash;
- xirgoyi qilish;
- noroziligini qo'pol, tahqiromuz so'zlar bilan bildirish;
- qo'lni cho'ntakka solib, orqaga qilib yoki ko'krakda napoleonchasiga chalishtirib turish; o'tirish;
- qo'l siltab gapirish;
- yelka qisish;
- inkor ma'nosida bosh chayqash;
- nutqni turli imo-ishoralar bilan boyitish;
- barmoq bilan biror narsani chertish, uzuk, marjon yoki sumka bog'ichini o'ynash, barmoqqa soch tolasini o'rash;
- suhbatdoshini turtish, yelka yo tizzasiga qo'l qo'yish, yelkasiga qoqish, yengi yoki pidjagining tugmasini ushlash;
- suhbatdoshga orqa o'girish;
- esnash, tez-tez soatga qarash (bu suhbatdosh joningizga tekkanini va suhbatni tezroq tugatmoqchi ekanligining bildiradi);
- gapni baland qahqaha bilan tugatish [18-21];
- suhbatlashganda (ayniqsa jamoat joylarida) baland ovozda gapirish;
- huda-behudaga kulish, og'izni ochib esnash;
- yo'talganda boshni biroz chetga burish, og'izni qo'l bilan berkitish, imkon bo'lgan qattiq yo'talganda yoki aksirganda og'iz-burunni dastro'mol bilan yopish;
- hadeb burun tortaverish yoki burunni qattiq qoqish mumkin emas;
- agarda hiqichoq tutsa, oshxona yoki hammom (vanna)ga borib, uni to'xtatishga urinish lozim (bunda qo'l bilan burunni berkitib, nafas olmay suv ho'plash samarali sanaladi);
- suhbatlashish chog'ida qo'lni pidjak, pal'to yoki shimning cho'ntagiga solish man etiladi, faqat zaruriyat tug'ilsagina biror narsani cho'ntakdan olish mumkin).

Ichki tartib-qoidalar muassasa, tashkilot yoki uyushmalar faoliyatini tashkiliy jihatdan to'g'ri, samarali tashkil etish imkonini beradi. SHu sababli har bir muassasa, tashkilot yoki uyushmalar o'zlarining faoliyat yo'nalishlari asosida ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqadilar. Muassasa faoliyati yo'naltiruvchi asos bo'lgani holda ichki tartib qoidalarini ishlab chiqishda asosiy sub'ektlar, ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, asosiy va xususiy maqsadlar, ularni amalga oshirish borasidagi jamoa imkoniyati, barcha uchun birdek ahamiyatga ega bo'la oladigan talablar inobatga olinadi.

Mehribonlik uylarining ichki tartib-qoidalari bevosita tarbiyalanuvchilar uchun ishlab chiqiladi va tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllantirishga xizmat qiladi. Muassasa ichki tartib qoidalarini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

1) tarbiyalanuvchilarning muassasa hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash;

2) ularning kundalik rejimga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratish;

3) tarbiyalanuvchilarning kundalik rejimga qat'iy, og'ishmay rioya etishga nisbatan mas'uliyatli yondasha olishlarini inobatga olish;

4) har bir tarbiyalanuvchi tomonidan muassasa jamoasi va uning a'zolari bilan samimiy, ochiq ko'ngillik bilan munosabatda bo'linishini nazorat qilish.

Mavjud manbalar bilan tanishish, Mehribonlik uylari faoliyatini o'rganish, tarbiyalanuvchilarga xos bo'lgan umumiy sifatlarni tahlil qilish asosida muassasa ichki tartib-qoidalari sirasida quyidagilarning o'rin olishi maqsadga muvofiq deb topildi:

- muassasada o'rnatilgan kun tartibi;

- yotoqxonada o'rnatilgan tartib-qoidalar;

- ta'lim olish jarayonining mo''tadil kechishini ta'minlovchi tartib-qoidalar;

- tarbiyalanuvchilarning yurish-turishlari, atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishlariga qo'yiladigan talablar.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarni ijtimoiy-axloqiy qoidalar bilan tanishtirib borish ularning axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalanishlariga zamin

yaratadi. Zero, tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-axloqiy qoidalarning yetarli darajada anglanishi ularga zid xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi. SHu sababli muassasada tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida masalaning mazkur jihatiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Tadqiqotni olib borish chog'ida ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatda nimalarni inobatga olish zarurligini o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari davrida tarbiyalanuvchilar uchun kun tartibini tuzishda turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kundalik faoliyatlari, ularning qiziqish, xohish-istaklari ham inobatga olindi. Shu bilan birga turli yosh davri o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan kun tartibida ayrim talablarning bir xil bo'lishiga e'tibor qaratildi. Jumladan:

- doimo bir vaqtda uyqudan turish;
  - ertalabki chiniqish va suv muolajasini o'tkazish;
  - kuniga uch-to'rt (yetti) mahal belgilangan vaqtda ovqatlanish;
  - bir kunda kamida ikki soat toza havoda bo'lish;
  - doimo bir vaqtda dars tayyorlash;
  - har haftada (kamida ikki marta) ikki soatdan jismoniy mashqlar yoki (qulay jismoniy yuklanma) sport bilan shug'ullanish;
  - bir kunda kamida sakkiz soat uxlash;
  - har kuni bir vaqtda uyquga yotish.

Mehribonlik uylarining har birida ularning butun faoliyati davomida amalda bo'lib kelayotgan kun tartiblari mavjud. Biroq, tadqiqotni olib borish jarayonida Mehribonlik uylari" uchun quyidagi kun tartibi tavsiya qilindi (3-jadval):

**Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari uchun  
tavsiya qilingan kun tartibi**

№	Bajariladigan ishlar	Vaqt
1.	Uyqudan uygʻonish, ertalabki badantarbiya	7.00-7.30
2.	Nonushta	7.30-8.00
3.	Taʼlim olish	8.00-14.00
4.	Tushlik	13.00-13.30
5.	Dam olish	14.00-16.00
6.	Qoʻshimcha mashgʻulotlar	16.00-18.00
7.	Toʻgʻarak mashgʻulotlari	18.00-19.00
8.	Kechki ovqatlanish	19.00-19.30
9.	Dam olish	19.30-20.30
10.	Dars tayyorlash	20.30-21.30
11.	Kechki sayr	21.30-22.00
12.	Uyquga yotish	22.00

Mazkur kun tartibiga rioya qilish Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi oʻsmirlarning intellektual, jismoniy, maʼnaviy va ruhiy jihatdan barkamol boʻlib voyaga yetishlarini taʼminlay oldi. Amaliy harakatni olib borishda tarbiyalanuvchilarga ijtimoiy munosabatni samarali tashkil etishga Muhammad Sodik Qoshgʻariyning “Odob as-solihin” [12, 22] asarida keltirilgan oid quyidagi maʼlumotlar taqdim etildi:

1. Kiyinish xususida: kishi imkon darajasida kiyinishi lozim; libos kishining yoshiga, jinsiga, faslga mos boʻlishi kerak, shuningdek, kiyim kishining qaerga, qanday tavruga borayotganligiga qarab tanlanadi; liboslarni toza saqlash talab etiladi; yaxshi libosni kiyganda manmanlik qilish odobdan sanalmaydi; ortiqcha liboslarni muhtojlarga inʼom qilish savob sanaladi, shu bilan birga ularning isrof boʻlmasligini taʼminlaydi.

2. Yoʻl yurish toʻgʻrisida: yoʻl yurganda meʼyorida qadam tashlanadi; atrofga alanglanmaydi; jamoat joylarida boshqalarga ozor berilmaydi; keksalardan

keyin yurish, ustozlar bilan birga ketayotganda ularning hurmatlarini saqlash, hamrohlar bo'lsa ular bilan birga ketish, biror kishi uchrab qolsa salomlashib, tez o'tib ketish, agar zarur bo'lsa chetga chiqib suhbatlashish talab qilinadi; og'iz suvi yoki balg'am o'ng tomonga yoki oldinga emas, chap tomonga yoki orqaga tashlanadi; yo'lda uchragan yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashiladi; yo'lovchilarga aziyat yetkazadigan narsalar chetga olib tashlanadi.

3. Mehmonga borish va mehmon kutish xususida: dorchilikdagi muloqot haqida: kishining boyligi, mavqeiga qaramab, mehmonga chaqirilmaydi; oila a'zolarini ham ajratmaslik lozim; mehmonning izzat-hurmati joyiga qo'yiladi; lekin uch kundan so'ng ortiqcha takalluflar, dabdaba qilinmaydi; mehmon uchun uy ortiqcha bezatilmaydi, biroq, ozoda, toza dasturxon, sochiq, ko'rpa-to'shaklardan foydalaniladi; dasturxon tuzashda isrofgarchilikka yo'l qo'yilmaydi; taom qo'yilganda mehmon boshlab, oxirida taomdan qo'l tortadi; mezbon mehmondan oldin qo'l uzatmasligi kerak; ortiqcha takalluf ham qilinmaydi; mehmon imkoni bo'lsa, lazziyatli taomlar bilan siylanadi, ketishga ruhsat so'ralganda hurmat bilan kuzatib qo'yiladi.

4. Mehmondorchilik (ziyofat)dagi muloqot (muallif esa buni "suhbat" deb yuritgan) to'g'risida: mehmondorchilik muloqotini yaxshi niyatda olib borilishi, beg'araz bo'lishi lozim; muloqotdoshlar bir-birlariga hurmat va iltifot ko'rsatishlari maqsadga muvofiq; muloqot jarayonida xonaga biror kishi kirganda yoki chiqqanda o'rindan turiladi; yoshi kattalar yuqoriga o'tkaziladi; beadab so'zlar, yomon xatti-harakatlar hamda noo'rin jimikdan saqlanadi; barchaga yaxshi muomalada bo'linib, ular izzat qilinadi; aksa kelsa og'izni to'sib, past ovozda aksa uriladi; mehmonlardan biriga ish buyurilmaydi; aksincha, imkon bo'lsa ularga beminnat xizmat ko'rsatish lozim; do'st va notanishlar bilan bir xil ochiq chehra bilan muomalada va shirinso'z bo'linadi; mehmonlardan birining yomon qiligi, qabih fe'li haqida gapirilmaydi, imkoni boricha uni suhbatdan chetlatish maqsadga muvofiqdir; ahli jamoaning xotirjamligini buzganlarga ularning harakatlari nojoizligini imo-ishora bilan tushuntirish kerak; mehmondorchilikda uxlanmaydi; o'zgalardan o'zni yuqori tutilmaydi; suhbatdoshning so'zi bo'linmaydi; hamsuhbat

bilan bahslashilmaydi; g'azab kelganda o'zni bosish axloqlilikning yuksak namunasi sanaladi; ortiqcha qiziqchilik, hazil-mutoyiba, xushomadgo'ylik qilinmaydi, bunda me'yorga rioya qilinadi, kishilarga laqab qo'yilmaydi; suhbatdoshlar o'zaro bir-birlari bilan pinhona, boshqalar tushunmaydigan tilda gaplashilmaydi; agarda kimlardir pinhona gaplashishayotgan bo'lishsa, ularning gaplariga quloq solinmaydi.

O'z navbatida mehmon ham ayrim qoidalardan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardir: mehmonga chaqiilganda, u faqirmi, ulug' martabalimi, albatta, borish lozim; zolim, axloqsiz, ikkiyuzlamachi va xurofotga berilgan kimsalarnikiga bormaslik ayb sanalmaydi. Zamonaviy sharoitda mehmonga aytilgan vaqtda borish, uzoq o'tirib, mezbonlarning vaqtini olmaslik odobning yuksak namunasi sanaladi.

5. Bemorning holidan xabar olish xususida: do'stlar uchun bemor holini so'rash zarurdir; bemorning millati, dinidan qat'iy nazar uning yoniga ochiq yuz bilan kiriladi; ko'nglini ko'taradigan so'zlar bilan murojaat qilinadi; bemorning oldiga bashang kiyingan yoki kir libosda borib bo'lmaydi; eshikdan kulib kirish, bemorning bosh tomoniga o'tirish lozim; ko'p so'zlashib bemorni toliqtirib qo'ymaslikka e'tibor berish kerak; shuningdek, kunda kelib bemorni toliqtirib qo'ymaslik lozim; bemorning ko'ngli tusayotgan narsalarni so'rab-surishtirishi va topib kelishi savob sanaladi; shu bilan birga bemorning parvarishida harom narsalardan saqlanish zarur; bemor oldida ko'p o'tirilmaydi; agar uning yonida bo'lishni zaruriyat talab qilsa, unga xush keladigan so'zlardan, hikoyatlardan so'zlab o'tirish joiz.

Bemor ham ma'lum qoidalarga rioya qilishi lozim. Jumladan, kasalidan hadeb nolimasligi, aksincha, og'ir dardga chalinganda ham o'ziga o'lim tilamasdan umr tilashi, og'irlashgani sezila boshlaganda gunohlaridan tavba qilishi; qarzlarini ado etib, farzandlari, qarindosh va do'stlaridan rozilik so'rashi va vasiyat qilishi, ularga sabr-qanoat tilashi eng muhim qoidalar sanaladi.

6. Ovqatlanish to'g'risida: taomni oz yeyish, shubhali taomni yemaslik, kamtarin dasturxonaga ham qanoat qilish, go'shtli taomlarni kam tanavvul qilish

lozim; tanavvul qilishda ayrim taomlarni bir-biri bilan aralashtirib yuborib bo'lmaydi, ya'ni:

- baliq bilan sutni;
- sut bilan nordon narsani;
- sut bilan tuxumni;
- qovirilgan go'sht bilan qaynatilgan go'shtni;
- qotgan (eski) go'sht bilan yangi go'shtni;
- issiq taom (ichimlik) bilan sovuq taom (ichimlik)ni;

Taomni o'tirib iste'mol qilinadi; kattalar taomga qo'l urmaganlariga qadar, qo'l cho'zilmaydi; taom yeyishda ozodalik (sanitariya) qoidalariga rioya qilinadi; ovqatlanishdan avval va keyin qo'l yuviladi; qo'l toza sochiqqa artiladi; ovqatlanib bo'lingach, uy sohiblari haqlariga duo qilinadi; duo doimo yoshi kattalar tomonidan qilinadi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi larida ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantirib borildi (4-jadval):

4-jadval

**Turli yoshdagi “Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilarida shakllantiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar**

<b>Yosh davrlari</b>	<b>Tarbiyalanuvchilarda shakllantirilgan ma'naviy-axloqiy sifatlar</b>
Maktabgacha ta'lim yoshi	Odoblilik, rostgo'ylik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, shirinso'zlilik, sabrlilik, sodiqlik, mehribonlik, rahmdillik, jamoaviylik, kattalarni hurmat va kichiklarni izzat qilish, tartiblilik, tirishqoq bo'lish, qo'qmaslik, o'zini tutish
Boshlang'ich ta'lim yoshi	Odoblilik, rostgo'ylik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, shirinso'zlilik, sabrlilik, sodiqlik, kamtarlik, mehribonlik, burchga sodiqlik, vatanparvarlik, rahmdillik, jamoaviylik, kattalarni hurmat va kichiklarni izzat qilish, tartiblilik, intizomlilik, tirishqoq bo'lish, qo'qmaslik, o'zini tutish
O'smir (o'spirin)lar	Axloqlilik, halollik, e'tiqodlilik, rostgo'ylik, bilimlilik, mehnatsevarlik, xushmuomalalilik, sabr-qanoatlilik, sadoqatlilik, kamtarlik, adolatparvarlik, mehribonlik, burchga sodiqlik, vatanparvarlik, va'daga vafu qilish, bag'rikenglik, rahmshafqatlilik, mehmondo'stlik, oilaparvarlik, jamoaviylik,

	kattalarni hurmat va kichiklarni izzat qilish, hayo, andisha, g'urur, intizomlilik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intiluvchanlik, qat'iyatlilik, irodali bo'lish, ko'ngilchanlik, jur'atlilik, botirlik, bosliqlik, hissiyotga berilmaslik, o'zini tutish, o'zini baholash, o'zini boshqarish, o'zini tarbiyalash
--	---

Jadvalda ko'rinib turibdiki, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishni bosqichma – bosqich yosh davrlar asosida belgilanib sifat ko'rsatgichi aniqlangan.

## **2.2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish borasida tadbirlar imkoniyatlari**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaytirildi, milliy pedagogik madaniyat, meros chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari, yutuqlaridan milliy xususiyatlarga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi.

Ta'lim-tarbiya jamiyatning ustuvor sohasi ekanligi jamiyatdagi so'ngi yillardagi ijobiy o'zgarishlar bunga misol bo'la oladi. SHu o'rinda mustaqillik yillarida respublikamiz prezidenti va hukumati bolalar va o'smirlarning har tomonlama kamol topishi, yoshlarning qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar tarbiyalanayotgan davlat qaramog'i muassasalari faoliyatining asosiy maqsadi bu muassasalardagi bolalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, tibbiy reabilitatsion xarakterdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, bolalarga ta'lim berishni tashkillashtirishdir[23].

Mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda tashkil etib boriladi:

- 1) ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ish;
- 2) ommaviy-tarbiyaviy ishlar;
- 3) ta'til kunlari olib boriladigan tadbirlar;
- 4) ochiq tarbiyaviy mashg'ulotlar;
- 5) "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar.

Mazkur yo'nalishlarning barchasi bo'yicha ish rejalari ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv yili davomida o'tkazish muddatlari aniq belgilab berilgan. Ularda muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatini tarbiyalash bilan bog'liq tadbirlarning tashkil etilish holatini Namagan shahar xalq ta'limi Bosh boshqarmasiga qarashli 26-sonli Mehribonlik uyi misolida ko'rib chiqamiz.

26-sonli Mehribonlik uyining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar rejasida aynan muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish rejalashtirilmagan bo'lsa-da, shunga yaqin mavzularda davra suhbatlari, ekskursiyalar, tarbiyaviy soatlar o'tkazish ko'zda tutilgan. Jumladan:

1) Namagan shahridagi turli xil ko'rgazmalar va muzeylarga, xalqimiz tomonidan bunyod etilgan inshootlarga tarbiyalanuvchilarning sayohatlarini uyushtirish;

2) davlatimizda nishonlanadigan milliy bayramlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida suhbatlar o'tkazish;

3) o'quvchilar o'rtasida "Ma'naviyat soati"ni o'tkazishda (har dushanba va payshanba kunlari) milliy fazilatlar va ularning o'zbek millatining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Ta'lim muassasasida esa, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq yil davomida quyidagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutilgan:

1) Respublikamizda milliy bayramlarni tashkil etish bilan bog'liq turli Markazlar hamkorlikda davra suhbatlari o'tkazish;

2) "O'zbek millatining milliy fazilatları", "O'zbekiston dunyo tanigan diyor" mavzularida suhbatlar o'tkazish;

3) Mamlakatimizga "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan mehribonlik uyida "Har kuning bo'lsin Navro'z" mavzusidagi bayram kechasini tashkil etish;

4) O'zbekistonning boshqa xalqlardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlariga oid teatrlartirilgan guruhlararo sayli tashkil etish.

Shuningdek, Mehribonlik uyida darsdan tashqari faoliyat jarayonida tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, tashkil etishga doir aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. Olib boriladigan ishlar rejasida ma'naviy -axloqiy sifatini shakllantirish bilan bog'liq quyidagi tadbirlar belgilab olingan:

- 1) darsdan kuzgi ta'til vaqtida tarbiyalanuvchilar o'rtasida milliy liboslar ko'rigini o'tkazish;
- 2) qishki ta'til davrida "Yangi yil-yaxshi yil!" tarbiyalanuvchilar uchun yangi yil bazmi va "Inson axloqi bilan go'zal" mavzusida ko'rik-tanlovi o'tkazish;
- 3) bahorgi ta'til davomida Mehribonlik uyida sumalak pishirish hamda uning bilan bog'liq milliy urf-odatlar, milliy fazilatlarini o'zida aks ettirgan, xalq an'analari va udumlariga asoslangan bayram tashkil etish.

Mehribonlik uylarining ochiq tarbiyaviy mashg'ulotlar rejasida ham aynan tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish bilan bog'liq alohida mavzularda tadbirlar o'tkazish belgilab berilmagan bo'lsa ham, mazkur masalaga aloqador ayrim mavzularda davra suhbatlari o'tkazish rejalashtirilgan:

- 1) "Mehr-muruvvatlilik – o'zbekning himmati";
- 2) "Ertaklar – ezgulikka yetaklar";

3) “O’zbek millatining sahovati- olamga mashhur”;

4) “Baxt g’oyibdan kelmas, uni qo’ling bilan yarat”.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati boshlang’ich tashkilotining ish rejasida esa muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatini shakllantirish bilan bog’liq quyidagi tadbirlarni tashkil etish rejalashtirilgan:

1) “Saxovat insoniyat bog’ining - boqiy ildizidir!” mavzusida ochiq tarbiyaviy mashg’ulot o’tish;

2) “Muruvvatlilik – mehribonlik ko’rsatish, fidoyilik va fidokorlikdir.” mavzusida insholar tanlovi o’tkazish;

3) “Bolalar – yurt kelajagi” mavzusida rasmlar ko’rgazmasini tashkil etish.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining o’zaro munosabatlariga ta’sir etuvchi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish shakllaridan biri bu to’garaklar (studiya, sektsiyalar)dir. To’garaklar va ularning faoliyat yo’nalishlarini biz Namangan shahridagi 26-sonli Mehribonlik uyi misolida tahlilini amalga oshirdik. Mazkur ta’lim muassasasida 16 nomdagi to’garak (studiya va sektsiyalar)lar faoliyat yuritadi:

1) “Mehrijon” raqs to’garagi;

2) samolyotsozlik;

3) avtomodellashtirish;

4) tasviriy san’at;

5) kompyuter saboqlari;

6) “Biz-Мы” studiyasi;

7) teatr studiyasi;

8) bioekosan;

- 9) vokal studiyasi;
- 10) tasviriy san'at studiyasi;
- 11) mo'jaz san'at (minatyura);
- 12) "Ohanglar sehri" folklor studiyasi;
- 13) "Til o'rganamiz" to'garagi;
- 14) "Musiqqa sehri (fortopiano\xalq cholg'usi)" to'garagi;
- 15) Sport sektsiyalari (futbol, voleybol, qizlar futboli, kikkboxing);
- 16) "Uy-ro'zg'or Akademiyasi".

Respublikamizda mehribonlik uylari o'rniga bosqichma-bosqich Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 22 maydagi 104-sonli Qaroriga asosan Bolalar shaharchalari tashkil etilmoqda. Ana shunday zamonaviy tarzda bunyod etilgan Bolalar shaharchasi Andijon shahrida joylashgan. Bugungi kunda Andijon shahridagi "Bolalar shaharchasi" da 14 ta oilalarda 101 nafar tarbiyalanuvchilar istiqomat qilishmoqda.

Bolalar shaharchasining boshqaruvga doir me'yoriy hujjatlarini o'rganish jarayonida mazkur muassasada o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga doir quyidagi muhim ishlar amalga oshirilayotganligi aniqlandi:

"Bolalar shaharchasi" tarbiyalanuvchi-farzandlarining shaxsiy ijtimoiy muammolarini aniqlash, ularga xavf tug'diruvchi omillarni bartaraf etish, ehtiyojlarini qondirish, har mahalada ularni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish ishlari yo'lga qo'yilgan va amalga oshirilmoqda. "Bolalar shaharchasi"da hozirgi kunda 101 nafar tarbiyalanuvchi-farzand bo'lib, ular 35 nafari o'smirlar, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish shuningdek, ijtimoiy moslashish xamda jamiyatga integratsiyalash uchun ularni ma'naviy-axloqiy, mehnat tarbiyasi va ta'lim olishini har tomonlama ta'minlash ishlari olib borilmoqda. SHuningdek, har bir tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xujjatlar yig'ma jildini o'rganish va uning ijtimoiy maqomi barqarorligini aniqlash ishlari, "Bolalar shaharchasi"dagi 10

yoshga to'lgan tarbiyalanuvchini xonadonlarga farzandlikka berish vaqtida ularning roziligini e'tiborga olib, muassasadagi oilalarga joylashtirish, oilada yashab ketishiga tayyorlash ishlari ham amalga oshirilmoqda. Tarbiyalanuvchi-farzandlarni qarindosh-urug'ligini tiklash maqsadida ularning ota-onalari, yaqin qarindoshlari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etilyapti.

Tarbiyalanuvchi-farzandlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ularni jamiyatga moslashuvini ta'minlash borasida har bir bola bilan individual suhbatlar olib borildi. Vazirlar Mahkamasining 164-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Tarbiyalanuvchi-farzandlarni uy-joy bilan ta'minlanganligi yoki ta'minlanmaganliklari haqidagi ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilib, uy-joyga muhtoj deb topilgan tarbiyalanuvchi-farzandlar haqidagi ma'lumotlar shahar hokimligi, shahar, tuman vasiylik va xomiylik organlariga turar joyga muhtojlar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida ma'lumotlar tayyorlanib, taqdim etilyapti. Tarbiyachi-onani bolalarga nisbatan e'tiborli bo'lishi, tarbiyachi-onaga bu borada pedagogik va psixologik maslahatlar berish doimiy rejaga kiritilyapti va bola bilan kundalik muloqotda tarbiyalanuvchi-farzandlar o'rtasida hissiy yaqinlikni shakllantirish, tarbiyachi-ona va tarbiyalanuvchi-farzand o'rtasidagi murakkab munosabatlarni bartaraf etish, bolaning xulqiga nisbatan o'ta qat'iy, bajarib bo'lmaydigan talablar qo'yimaslik, bolaga mehr ko'rsatish, bolani qattiq jazolamaslik, tarbiyachi-ona tarbiyasidagi bolani tarbiyasi og'ir va turli qiyinchiliklar keltirib chiqarishga moyil deb hisoblasa, ular bilan alohida ish olib borish, surunkali kasalligi bor bolalar bo'lsa, ularga nisbatan e'tiborliroq bo'lish kabi bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

“Bolalar shaxarchasi”da rejaga asosan pedagogik kengashlarda, tarbiyachi-onalarga turli maslahatlar berish uchun tashkil etilgan “Onalar maktabi”, tarbiyalanuvchilarni oilaga, hayotga tayyorlash maqsadida tashkil etilgan “Qizlar klubi”, “Yosh vatanparvarlar” guruhi yig'ilishlarida ijtimoiy xizmatlar haqida, 9-sinf bitiruvchilarining qiziqishlarini aniqlash, ularning yaqin qarindoshlari bilan

aloqalarini mustahkamlash borasida muntazam ravishda mutaxassislar bilan hamkorlikda ma'ruzalar, davra suhbatlari hamda bahslar o'tkazilib kelinyapti.

“Bolalar shaharchasi”da tashkil etilgan “Onalar maktabi” yig'ilishlarida tarbiyachi-onalarning ma'naviy ongini boyitish, ularni dunyoqarashlari ko'lamini yanada kengaytirish, o'ksik qalblarga to'g'ri yo'l topishlari, mehr berishlari hamda ular bilan qanday tartibda muomala o'rnatish, onalik va bolalik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida quyidagi mavzularda “Nogironlar bilan muloqot tili va odob-axloq qoidalari”, “Bolalarga nisbatan zo'ravonlik xaqida inson xuquqlari xalqoro qonuni va standartlari”, “Autik bolalar va ular bilan ishlash yo'llari”, “Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti diagnostikasi”, “Inson xulqini identifikatsiyasi me'yorlari”, “Bolada o'zgalarning tashvishlariga xayrihoh, xamdard bo'lish kabi qobiliyatlarini shakllantirish”, “Xavotirlanuvchi bolalar va ular bilan ishlash yo'llari”, “Tutingan oila – yangi oila tizimi sifatida”, “Bolalarni o'z xulqlarini boshqarishga o'rgatish”, “Agressiv xulqli bola va unga yordam berish”, “Bolalarda o'zgalarga ishonch bildirish va o'ziga nisbatan xam ishonch xissini shakllantirish”, “Yaxshi xulqni qanday ko'llab-kuvvatlash kerak? ”, “Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash yo'llari”, “Bolalar va ularning xulq atvorini kuzatish”, “Bolaga nisbatan zulm va extiyotsiz munosabat xafvini keltirib chiqaruvchi omillar” kabi mavzularda treninglar o'tkazilmoqda.

“Bolalar shaxarchasi”da tarbiyalanuvchi o'g'il bolalar uchun tashkil etilgan “Yosh vatanparvarlar”, qizlar uchun tashkil etilgan “Qizlar klubi” yig'ilishlarida “O'smirlik davri xususiyatlari”, “Milliy qadriyatlar”, “Xayo va ibo tushunchalari”, “Muomala madaniyati”, “Mehmon kutish madaniyati”, “Mexnat va kasb-xunar madaniyati”, “Kiyinish madaniyati”, “Yigitlarga xos fazilatlar”, “Odob-axloq koidalari”, “Kasblarning o'ziga xos xususiyatlari”, “Mehnat qilish va kasb tanlash xuquqi”, “Ezgu fazilatlar inson ko'rki”, “Vatan tuyg'usi va milliy g'urur”, “Insonning dunyoqarashi uning ma'naviyatini belgilaydi” kabi mavzularda xamda tarbiyalanuvchi-farzandlarning tibbiy bilimlarini oshirish maqsadida “Yuqumli kasalliklar – qizamiq, virusli gepatitni oldini olish”, “Sog'lom turmush tarzi”, “Bo'qoq kasalligi xaqida”, “Gripp kasalligi xaqida”, “Gastritning kelib chiqishi va

uning oldini olish yo'llari", "Tonzillit (angina) kasalligi", "Teri kasalliklari va ulardan saqlanish yo'llari", "Allergik kasalliklar – ekzema, astma, kon'yuktivit", "Kamqonlik kasalliklari va uning oldini olish", "Ovqatdan zaxarlanish", "Og'iz bo'shlig'i gigienasi", "Revmatizm", "Travma olish va unga birinchi yordam ko'rsatish", "Dori qabul qilishning tartib-qoidalari" kabi mavzularda davra suhbatlari o'tkazilyapti.

Tarbiyalanuvchi-farzandlarni biologik oilasiga qaytarish imkoniyati yuqori bo'lgan oilalarni aniqlash maqsadida tarbiyachi-onalar bilan birgalikda xar bir tarbiyalanuvchi-farzandning genogramma va ekokartasi tuzilgan hamda tarbiyalanuvchi-farzandlarni xozirgi va oldingi hayotlari aks ettirilgan "Hayot tarixi" kitoblarini tuzish yo'lga ko'yilgan va ushbu kitobning sahifalari yildan yilga davom ettirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda "Oila, mahala va ta'lim muassasasi" Kontseptsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida, tarbiyalanuvchi-farzandlarni maktabdagi bilim olish jarayonini kuzatish, fanlar kesimidagi to'garaklardagi ishtirokini nazorat qilish, fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari bilan muntazam ravishda aloqada bo'lish maqsadida muassasa raxbariyati, pedagog xodimlar va tarbiyachi-onalar bilan birgalikda maktab va mahala vakillari bilan xamkorlikdagi ishlar muntazam ravishda olib borilyapti.

Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish tarbiya va ta'lim ishlari o'zaro muvofiqlikda olib borilgandagina ta'minlanadi.

Bolalar uylarining asosiy vazifalaridan biri tarbiyalanuvchi da ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish sanaladi. Buning uchun ma'naviy- ma'rifiy munosabatlarini o'zida ifoda etuvchi tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbirlar jarayonida ular kattalarning kichiklar to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari; kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; bir-biriga hurmat qilish; ota-onalar, oilaning katta a'zolari bilan samimiy munosabatda bo'lish; bir-birlarini tushunish hamda o'y-kechinmalarini hurmat qilish kabi fazilatlarini o'zlashtira olishlari lozim.

Mehribonlik uylarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning milliy qadriyatlar hamda tamoyillarga asoslanishiga erishishda quyidagilar vazifalarning ijobiy hal etilishi muhim ahamiyatga ega:

- milliy tarbiyani yo'lga qo'yishning differentsial (tabaqaviy) pedagogik-psixologik dasturini yaratish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish ishlarini uzluksiz ravishda, ya'ni darsda, darsdan tashqari sharoitda izchil yo'lga qo'yish;
- o'quv dasturlari, darslik, tavsiyanoma va qo'llanmalarda milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi va milliy tarbiya masalalarini yetarlicha aks ettirish;
- milliy tarbiyani bugungi kun talablari darajasida amalga oshirish uchun tarbiyaviy soatlar majmuasini ishlab chiqish.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan amaliy ishlar quyidagi ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Axborot-ma'rifiy ishlar.

2. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, tashhis qilish, tuzatishlar kiritish va ko'mak berish maqsadida maslahatlar uyushtirish [16, 24].

Mehribonlik uylarida amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajara olishi lozim:

- boshqa mutaxassis (tarbiyachi, pedagog, defektolog, rahbar va hokazolar)larning bilimlarini, salohiyatini, qobiliyatini hurmat qilgan holda hamkorlikda ish olib borish;

- zamonavaiy psixodiagnostika uslublaridan foydalanish qoidalari bilan doimo tanishishlari va muntazam malakalarini oshirishga e'tibor qaratish;

- ish jarayonida e'tiborlilik, tashkilotchilik, javobgarlik hissi, anlitik aql, emotsional barqarorlik, obrazli eslash qobiliyati, yaxshi nutq, mantiqiy tafakkur, eruditsiya (keng ma'lumotga ega bo'lish), chidamlilik kabi kasbiy sifatlarga ega bo'lish;

- kasbdagi umumiy axloqiy me'yorlar, ya'ni shaxsga hurmat bilan qarash, inson huquqlarini himoya qilish, tarbiyalanuvchilarga nisbatan samimiy bo'lish,

psixologik uslublarni qo'llashda va suhbat jarayonida ehtiyotkor, faoliyat jarayonida esa qat'iyatli bo'lish va maqsadga erishish kabi tamoyillarga asoslanib ish ko'rish [25].

O'smirlik yoshi tarbiyalanuvchilarida: axloqlilik, halollik, rostgo'ylik, bilimlilik, mehnatsevarlik, xushmuomalalilik, sabr-qanoatlilik, sadoqatlilik, kamtarlik, adolatparvarlik, mehribonlik, burchga sodiqlik, vatanparvarlik, va'daga vafo qilish, rahm-shafqatlilik, mehmondo'stlik, jamoaviylik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, aqllilik, hayo, g'urur, andisha, intizomlilik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intiluvchanlik, qat'iyatlilik, irodali bo'lish, ko'ngilchanlik, jur'atlilik, botirlik, bosiqlik, hissiyotga berilmaslik, o'zini tutish, o'zini baholash, o'zini tarbiyalash.

O'smirinlik yoshi tarbiyalanuvchilarida: axloqlilik, halollik, e'tiqodlilik, nafsga berilmaslik, rostgo'ylik, bilimlilik, mehnatsevarlik, xushmuomalalilik, sabr-qanoatlilik, vafodorlik, sadoqatlilik, insonparvarlik, oliyjanoblilik, muruvvatlilik, kamtarlik, adolatparvarlik, mehribonlik, burchga sodiqlik, vatanparvarlik, va'daga vafo qilish, bag'rikenglik, oilaparvarlik, rahm-shafqatlilik, mehmondo'stlik, atrofdagilarga g'amxo'rlik qilish, jamoaviylik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, zukkolik, hayo, g'urur, andishalilik, axloqiy poklik, intizomlilik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, irodali bo'lish, intiluvchanlik, qat'iyatlilik, ko'ngilchanlik, jur'atlilik, mardlik, botirlik, keng fe'llik, bosiqlik, hissiyotga berilmaslik, o'zini tutish, o'zini baholash, o'zini tahlil qilish, o'zini nazorat qilish, o'zini boshqarish, o'zini tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan ijobiy xislat va salbiy illatlarga tayangan holda aytish mumkinki, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda ularga nafaqat o'zga shaxslar, shu bilan birga kishilar jamoasi (jamiyat) uchun foydali bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etish, aksincha, zarar yetkazuvchi ishni qilmaslik, faoliyatni tashkil etmaslik zarurligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Jamiyat tomonidan muayyan axloqiy me'yor, mezonlar tan olinar ekan, uning negizida shaxs, jamoa manfaatlarini himoya qilish, sha'ni, qadr-qimmatini yerga urmaslik, obro'sini to'kmaslik, haq-huquqlarini

poymol qilmaslik talabi yotadi. Shu bois tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy ongining tarkib topishi, rivojlanib borishi natijasida ular jamiyatda ustuvor bo'lgan axloq mezonlaridan xabardor bo'lib boradilar, har bir xatti-harakatida ularga amal qilishni o'rganadilar. Tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy axloqiy mezon, me'yorlarning o'zlashtirilishi murakkab jarayon bo'lib, u:

- 1) axloqiy mezonlar asosida shakllangan tartib-qoidalardan xabardor bo'lish;
- 2) ularning mohiyatini anglash;
- 3) ma'naviy-axloqiy qoidalarga rioya qilish;
- 4) o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy axloqiy tartib-qoidalar asosida tahlil qilish;
- 5) ma'naviy-axloqiy qoidalarga rioya etishda yo'l qo'yilgan xatolarni anglash va ularni tuzatish tarzida amalga oshadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilar ishtirokida "O'zbek xalq maqollarida ijtimoiy munosabatlar mazmunining aks etishi" mavzusida kichik tadqiqot amalga oshirildi.

Shunday qilib, tadqiqot jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini ishlab chiqish tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash imkonini berdi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sirasida treninglar, bahs-munozaralar, kichik tadqiqotlar, shuningdek, bellashuvlarning o'rin olganligi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlikni ifodalaydigan amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minladi.

### **2.3. Tarbiyalanuvchi o'smiralarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish omillari**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, tarbiyalanuvchilar ham teng huquqli a'zo sifatida jamiyat tomonidan tan olingan axloq mezonlariga rioya etishlari lozim. Xo'sh, axloq mezonlari o'zi nima? Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda Mehribonlik uylarining tarbiyalarida qanday ma'naviy-axloqiy xislatlarni

shakllantirish taqozo etiladi? Ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mohiyatida nimalar aks etishi kerak? Quyida shu kabi savollar yuzasidan so'z yuritiladi.

Insoniyatning fikrlay boshlashi, yaxshi-yomonni ajrata olishi muayyan jamiyatda kishili munosabatlarini tartibga soladigan axloq mezonlari, qoidalarning ishlab chiqilishiga zamin yaratdi. "Axloq (lotin. "moralis" – qoidaga, xulq-atvorga, urf-odatga taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlar" [26, 32]; "ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir". Manbalarda, shuningdek, axloq yig'indisi har bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligining o'z-o'zini tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o'ziga xos usuli [27] sifatida ham ta'riflanadi.

"Axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari, munosabatlarining yozilmagan, lekin jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo'llab-quvvatlanadigan "oltin qoidalar"ni ifodalab, odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi" [11, 24].

Mazkur masala yuzasidan ma'lumot beruvchi manbalarda bildirilgan fikrlarni quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

- 1) axloq ijtimoiy shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi;
- 2) shaxslararo munosabatlar mazmunini belgilashga xizmat qiladi;
- 3) ma'naviy-axloqiy me'yor (mezon)lar xuddi qonun, huquqiy me'yorlar kabi yozma ravishda tartibga solinmaydi;
- 4) axloq jamoatchilik fikri bilan boshqariladi;
- 5) shaxsning ma'naviy-axloqiy mezonlarga rioya qilishi uning milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatini, jamiyatdagi o'рни va rolini, shuningdek, dunyoqarashini belgilaydi;

- 6) axloq shaxsga xos xislatlarning muhim tomonini ifodalaydi;
- 7) shaxsning umumjamiyat tomonidan tan olingan qadriyatlarini, ya'ni boshqalar sub'ektlarning haq-huquqlarini tan olish, ular bilan kelishish, jamoada o'zini tuta bilish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Jamiyatda har bir shaxsning axloqqa bo'lgan munosabati ularning axloqiy ongga egaliklari bilan belgilanadi. Axloqiy ong o'z navbatida axloqiy xatti-harakatlar va munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Axloqiy his-tuyg'u, iroda, aql-zakovat, intuitsiya, xayol va xotira kabilar axloqiy ong tarkibini tashkil qiladi.

Tarixiy va nazariy tahlil insoniyat tomonidan asrlar davomida shaxslararo munosabatlarda ularning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy xislatlarni belgilab olishga nisbatan jiddiy yondashilgan. O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ham bu yo'ldagi amaliy harakatlar tashkil etilgan hamda nazariy g'oyalar shakllantirilgan.

Kishilik taraqqiyotining turli davrlarida axloqiy mezonlarning belgilanishi turlicha kechgan. Garchi turli ijtimoiy tuzumlar davrida axloqiy mezonlarning belgilanishiga nisbatan yondashuvlarda qisman o'ziga xoslik mavjud bo'lgan bo'lsa-da, biroq axloqiy xatti-harakatlarning in'ikosi sifatida ayrim mezonlar barcha davrlar uchun birdek ahamiyat kasb etgan. Jumladan, tabiiy borliqqa nisbatan oqilona yondashish, tabiatni asrab-avaylash, kishilarga yaxshilik qilish, ularga yomonlik qilishdan saqlanish, zimmadagi burch va majburiyatni sidqidildan ado etish, mas'uliyatni his qilish, shaxsiy manfaatlarni umumjamo'a manfaatlaridan ustun qo'yish, Vatanni himoya qilish, o'zi mansub qabila, millat yoki elatning baxt-saodati uchun kurashish kabilar shular jumlasidandir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avseto"da shaxsga xos barcha axloqiy xislatlar negizini ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal tashkil qiladi. Islom dini g'oyalariga ko'ra esa halollik, savob, iymon, nafsga berilmaslik, rostgo'ylik va bilimlilik barcha axloqiy xislatlarning asosi sifatida e'tirof etilgan. Aksincha, harom, gunoh, iymonsizlik, havoyi nafga berilish, yolg'onchilik va bilimsizlik barcha yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi omil deya baholangan. Islom dinining muqaddas kitobi – "Qur'oni karim" hamda payg'ambar Muhammad a.s.v.ning

sunnatlari bo'lgan hadislarda axloqlikning muhim belgilari sifatida ifodalangan xislatlar ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ham izchil o'rganilgan.

Axloq mezonini o'rganish, uning tarkibiy tuzilmasini tahlil etish masalasi G'arbda bo'lgani kabi SHarqda ham mutafakkirlarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul-Moaliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy hamda Abdulla Avloniyning asarlarida ham shaxs qiyofasida aks etuvchi axloqiy xislatlar tartiblangan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy [30], Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy [21-22])ning asarlarida ma'naviy-axloqiy xislatlar sifatida quyidagilar keltiriladi (1-jadval):

1-jadval

**SHarq mutafakkirlarining asarlarida keltirilgan  
ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar**

Abu Rayhon Beruniy	Abu Ali ibn Sino	Alisher Navoiy	Abdulla Avloniy
Axloqiylik	Bilimlilik Aqllilik	Aqllilik	Aqllilik
To'g'rilik	Donolik	Farosatlilik	Diyonatlilik
Odillik	Axloqlilik	Axloqiy poklik	Sarishtalik
O'zini vazmin tutish	Jasurlilik	Sabrlilik	G'ayratlilik
Insof	Mardlik	Qanoatlilik	Iymonlilik
Kamtarlik	Adolatparvarlik	Saxiylik	SHijatlilik
Lutf	Qanoatlilik	Himmatlilik	Qanoatlilik
Sobitqadamlik	CHidamlilik	Muruvvatlilik	Bilimlilik
Ehtiyotkorlik	Ehtiyotkorlik	To'g'rilik	Sabrlilik
Ehtiyotkorlik	Ziyraklik	Rostgo'ylik	Yumshoqlik
Saxiylik	Saxiylik	Tavoze'lik	Intizomlilik
Saxovatlilik	Sadoqatlilik	Odoblilik	Vijdonlilik
Muruvvatlilik	Uyatchanlik	Mehnatevarlik	Vatanparvarlik
Halollik	Sofdillik	Vijdonlilik	Haqgo'ylik

Haqgo'ylik	Rahm-shafqatlilik	Insoflilik	Oqillik
Mehnatsevarlik	Bosiqlik	Saxovatlilik	Iffatlilik
Ozodalik	Do'stlik	Kamtarlik	Hayolilik
Tartiblilik	Hamkorlik	Hayolilik	Zukkolik
Hayoli bo'lish	Xushxulqlilik	Muruvvatlilik	Tejamkorlik
Didli bo'lish	Bilimlilik	Ko'ngli ochiqlik	G'ururlilik
Latofatlilik	Mehribonlik	Vafodorlik	Oqibatlilik
SHirinsuxanlik	Oilaparvarlik	Hilmlik	Itoatgo'ylik
Adolatlilik	Mehnatsevarlik	(yumshoqlik)	Xayrixohlik
Tadbirkorlik	Barkamollik	Insoniylik	Munislik
Olijanoblilik	Zukkolik	Nafsga	Sadoqatlilik
Bilimlilik	Qobiliyatlilik	berilmaslik	Adolatparvarlik
Do'stlik		Adolatparvarlik	Muhabbatlilik
Hamkorlik		Ijodkorlik	Olijanoblilik
			Kechirimlilik

Qadimgi yozma manbalar va mutafakkirlarning axloqiy qarashlariga tayangan holda ma'naviy-axloqiy sifatlar va ularga zid bo'lgan illatlarning tartibini shakllantirish mumkin (2-jadval):

2-jadval

**Sharq mutafakkirlarining asarlarida keltirilgan ijobiy va salbiy ma'naviy-axloqiy sifatlarning o'zaro qiyoslanishi**

Ma'naviy-axloqiy xislatlar		Axloqsizlikni ifodalovchi illatlar	
Axloqlilik	Kattalarni hurmat qilish	Axloqsizlik	Kichiklarni izzat qilmaslik
Halollik	Kichiklarni izzat qilish	Harom luqma yeyish	Baxillik
E'tiqodlilik	Zukkolik	E'tiqodsizlik	Johillik
Me'da to'qligi	Hayo	Badnafslilik berilish	Zinokorlik
Rostgo'ylik	Andisha	Yolg'onchilik	Ta'magirlik
Bilimlilik		Bilimsizlik	Andishasizlik
Mehnatsevarlik			

Xushmuomalalilik	G'urur	Qo'rslik	Intizomsizlik
Sabr-qanoatlilik	Axloqiy poklik	Sabrsizlik	Tartibsizlik
Vafodorlik	Intizomlilik	(qanostsizlik)	Mas'uliyatsizlik
Sadoqatlilik	Tartiblilik	Vafosizlik	Dangasalik,
Oliyjanoblilik	Mas'uliyatlilik	Hiyonat	yalqovlik
Muruvvatlilik	Intiluvchanlik	Manmanlik	Qat'iyasizlik
Kamtarlik	Qat'iyatlilik	Xudbinlik	Irodasizlik
Adolatparvarlik	Irodali bo'lish	Hasadgo'ylik	Diydasi qattiqlik
Insonparvarlik	Ko'ngilchanlik	G'iybatchilik	Jur'atsizlik
Mehribonlik	Jur'atlilik	Ochko'zlik	Qo'rqqoqlik
Burchga sodiqlik	Mardlik	Xasislik	Fe'li torlik
Vatanparvarlik	Botirlik	Nafsga berilish	Engiltaklik
Va'daga vafo qilish	Keng fe'llik	Adolatsizlik	Jizzakilik
Bag'rikenglik	Bosiqlik	Qahri qattiqlik	Qaysarlik
Rahm-shafqatlilik	Hissiyotga	Vahshiylik	O'zini tuta
Mehmondo'stlik	berilmaslik	Va'daga vafosizlik	olmaslik
Bolajonlik	O'zini tutish	Atrofdagilarni	O'zini baholay
Etim (beva)larga	O'zini baholash	yoqtirmaslik	olmaslik
g'amxo'rlik	O'zini tahlil qilish	SHafqatsizlik	O'zini tahlil qila
Oilaparvarlik	O'zini nazorat	Bolalarni	olmaslik
Jamoaviylik	qilish	yoqtirmaslik	O'zini nazorat qila
	O'zini boshqarish	Nodonlik	olmaslik
	O'zini tarbiyalash	Etim (beva)larni	O'zini boshqara
		kamsitish	bilmaslik
		Hayosizlik	O'zini tarbiyalay
		Kattalarga	olmaslik
		hur matsizlik	

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishdan avval ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishda yuqoridagi jadvalda keltirilgan ijobiy xislatlarni tarbiyalash, aksincha, salbiy illatlarga ega bo'lishlarining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

### **Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi (ta'kidlovchi tajriba)**

<b>Guruhlar</b>	<b>Daraja ko'rsatkichlari</b>					
	<b>Yuqori</b>		<b>O'rta</b>		<b>Past</b>	
	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>
Tajriba n <sub>1</sub> = 25 nafar	4	17,6	8	33,9	13	48,5
Nazorat n <sub>2</sub> = 29 nafar	3	14,9	7	31,3	19	53,8

Jadvalning ko'rsatkichlari dastlabki o'rganish o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanish darajasi bugungi kun talablariga muvofiq yuqori emasligi ko'rsatdi. Bu esa shakllantiruvchi tajriba bosqichida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradigan maxsus metodikani ishlab chiqish va uni sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiqligi taqozo etadi. Tadqiqotni olib borish davrida Mehribonlik uylari o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishdning barcha jihatlarini inobatga olgan holda maxsus metodika ishlab chiqildi. Mazkur metodikani muassasalar amaliyotiga tadbiiq etish va uning samaradorligi xususida ishning keyingi boblarida so'z yuritiladi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga tizimli yondashuv ko'tilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini berdi.

2. Tadbirlarning muayyan texnologik loyihalarga asoslanganligi ular samaradorligini oshirish bilan birga, tarbiyalanuvchilarning qiziqish va faolliklarini ta'minladi.

3. Tadqiqot jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini ishlab chiqish tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash imkoniyatini yaratdi.

4. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sirasida treninglar, bahs-munozaralar, kichik tadqiqotlar, shuningdek, bellashuvlarning o'rin olganligi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlikni ifodalaydigan amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minladi.

### **III BOB. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga oid tajriba–sinov ishlarining umumiy mohiyati**

#### **3.1. Tajriba-sinov ishlari metodikasining mazmuni va mexanizmi**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishning ustuvor tamoyillari va nazariy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda mazkur faoliyat natijasini o'rganish maqsadida sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba maydonlari sifatida Farg'ona vodiysi viloyatlari Andijon va Namangan viloyatlarida joylashgan Mehribonlik uylari tanlandi. Tajriba maydoni bo'lgan Mehribonlik uylaridan sinov ishlariga jalb etilgan respondent-tarbiyalanuvchilarning soni jami 61 nafarni tashkil etdi (3.1-jadval):

3. 1-jadval

#### **Tajriba maydonlari sifatida belgilangan “Mehribonlik” uylari va respondent-tarbiyalanuvchilar soni**

№	“Mehribonlik” uylari		Tarbiyalanuvchi o'smirlar soni
	Joylashgan shahar	Tartib raqami	
1.	Andijon shahri	SOS Bolalar shaxarchasi	23
2.	Namangan shahri	26-sonli	38

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishga oid maxsus metodikani amaliyotga tatbiq etish, uning amaliyot uchun mosligi va samaradorligini tekshirish maqsadida jami respondentlar bilan tajriba sinov ishlari olib borildi.

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining muruvvatlilik va sahovatlilik fazilatini shakllantirish quyidagi shakl va vositalar asosida amalga oshiriladi:

- muruvvatlilik va sahovatlilik fazilatini shakllantirishga oid ommaviy kechalardan keng foydalanish, suhbatlar, ijtimoiy-pedagog olimlar ishtirokida ilmiy-amaliy konferentsiyalar tashkil etish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida ma'naviy tadbirlarda ishtirokini tashkil etish;
- turli uchrashuvlar, anjumanlar, “Mehr-muruvvatlilik - o'zbekning himmati”, “Ertaklar - ezgulikka yetaklar”, “O'zbek millatining sahovati-olamga mashhur”, “Baxt g'oyibdan kelmas, uni qo'ling bilan yarat” kabi mavzularda suhbat kabi mavzularda tadbirlar uyushtirish;
- tarbiyalanuvchilarga muruvvatlilik va sahovatlilik fazilatini shakllantirishda differentsial munosabatga asoslangan holda ularni boshqa turli tarbiyaviy shakl va usullar bilan birligini tashkil etish.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining muruvvatlilik va sahovatlilik fazilatini shakllantirishga quyidagi ijtimoiy pedagogik vositalar, usullar va shakllarning majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiq:

- tushuntirish, targ'ibot, bahs munozara, tahlil, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- pand-nasihah, maslahah, o'gitlar, maqollar, turli ma'naviy jarayonlar oid g'oyalar, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, marosimlar bayramlar.
- mashqlar, topshiriqlar va rag'batlantirish usullaridan foydalanish;
- uchrashuvlar, davra suhbatlar o'tkazish, tadbir va kechalar tashkil etish;
- kinoteatr, badiiy kitoblar, muzeylar, sayyohatlar va boshqalar.

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda yuqoridagi usul va, vosita, shakllardan foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin.

Suxbat asosida u yoki bu milliy an'analarning ma'naviy tarbiya mazmunini mustaqillik va uni mustahkamlash bilan aloqasini ochib beruvchi dalillar yotadi. Alohida epizod va dalillarni ko'rsatish shakli turlicha bo'lishi mumkin. Milliy an'analarning mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining o'smirlarini ma'naviy-

axloqiy sifatlarini shakllantirish va ularni hozirgi kundagi ahamiyatini anglash har bir an'analarning axloqiy belgilarini topa bilish malakalarini talab qiladi. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda tashkil etilgan ma'naviy ma'rifiy faoliyatdan keyin o'tkazilgan suhbat savollaridan namunalar keltiramiz:

T/r	Savollar
1	O'zbekiston xalqi qadimdan muhtojlarga beg'araz yordam berish g'oyasini axloqiy madaniyatning asosi ekanligi qanday?
	Muruvvat va saxovat moddiy va ma'naviy shaklga ega ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida ekanligini ayting?
2	“Muruvvatlilik va saxovatlilik” nima uchun kerak?
3	Ma'naviy- axloqiy sifatlarini bilasiz?
4	“Saxovatlilik” deganda nimani tushunasiz?
5	Vatanimizni tinchlik osoyishtalikni asrashda sizning ma'suliyatingiz nimalardan iborat?
6	Sizningcha ma'naviy- axloqiy sifatlarini tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
7	Yoshlarda ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda OAV o'rnini nimalardan iborat?
8	Ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda darsdan tashqari faoliyatning o'rnini qanday deb o'ylaysiz?
9	Qadriyatlar xalqimiz tabiatiga xos deganda nimalarni tushunasiz?
10	Milliy madaniyatimizning takomillashuvida yoshlarning o'rnini nimalardan iborat?

**“Notiqlar” klubi.** Keyingi yillarda darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-ma'rifiy yunalishidagi yangidan yangi to'garaklar o'z ishini boshlamoqda. Shulardan biri - “Notiqlar” klubidir. Respublikamizda o'tkazilayotgan tantanali, estetik, ma'naviy tadbirlarda notiqlik iqtidoriga ega tarbiyalanuvchilarning ishtiroki tobora oshib bormoqda. Bu esa boshqa tarbiyalanuvchilar uchun namuna rolini bajarib, tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dastlab tadqiqot

faraziga mos metodika ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari metodikasi tajriba-sinov ishlari bosqichlari, tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga doir tarqatma materiallar hamda tajriba-sinov metodlarini o'z ichiga qamrab oldi.

1. Aniqlovchi bosqich. Mazkur bosqichning maqsadi mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini o'smirlarini ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllanganligi dastlabki tashxis etish. Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar hal etildi: tayyorlov – tashxisning maqsadi, vazifa, mezon va metodlari aniqlandi; izlanishli – tashxis ob'ektlari o'rganildi va olingan axborotlar to'plandi; tahliliy – olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil etildi, ular izohlandi; izohli – rejalashtirilgan ishlarni o'tkazishga ta'sir etuvchi pedagogik ta'sirlarning majmuaviy o'lchovi aniqlandi.

2. Shakllantiruvchi bosqichi. Maqsad mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish. Tayyorlov bosqichida tashxis etilganlari asosida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish yo'llari ishlab chiqildi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda vosita, metod va usullar asosida tarbiyalanuvchilar bilan faol ish olib borildi.

3. Yakunlovchi bosqich. Maqsad – barcha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakunini chiqarish. Tahliliy bosqichda tajriba-sinov ishlari va olingan natijalar tahlil etildi. Izohli bosqich asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlariga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **3.2. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan tajriba – sinov ishlari natijalari**

Mustaqillik yillarida dolzarb muammolardan biri yangi tarixiy sharoitda jamiyatga, yurtga munosib kishilarni tarbiyalash edi. Bu esa ko'rinib turibdiki yoshlar, kelajak avloddir darhaqiqat, yoshlar respublikamizda juda katta kuch hisoblanadi. Bu kuchni esa to'g'ri yo'naltirish o'ziga xos yutuq va kamchiliklarni, muammolarni to'g'ri hal qila olish o'sha davr, o'sha sharoitdan juda katta ma'suliyat talab qiladi. Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi,

mamlakat kelajagi bilimli, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodga bog'liqdir. Yoshlarni ijtimoiy - siyosiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yoshlarning o'z aql zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etish uchun zarur shart-sharoit yaratish davlatimiz oldidagi turgan dolzarb muammolardan biridir.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan "Mehr-muruvvatlilik– o'zbekning himmati" mavzusida davra suhbatini o'tkazdik. Davra suhbatida mehribonlik uyidagi ma'naviy-axloqiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, guruh tarbiyachisi, va "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida professor- o'qituvchilari, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda davra suhbatini tashkil etdik. Suhbatda tarbiyalanuvchilarga ishtirokchilar savollar bilan murojaat qilishdi: "ma'naviy-axloqiy sifatlar, sahoatlilik, saxiylik, bag'rikenglik, yaxshilik kabi tushunchalarining ma'nosini ayting?" , "Ezgulik, qo'li ochiqlik, ko'zi to'qlik, yordam berish, qo'llab-quvvatlash, jasurlik kabi tushunchalarining ma'nosini ayting?", "Ijtimoiy-faollik" nima uchun kerak?", "SHaxsning qanday ma'naviy-axloqiy sifatlarini bilasiz?", "Saxovatli inson deganda nimani tushunasiz?", "Mamlakatimizdagi tinchlik osoyishtalikni asrashda sizning ma'suliyatingiz nimalardan iborat?", "ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda darsdan tashqari faoliyatning o'rni qanday deb o'ylaysiz?", "Milliy madaniyatimizning takomillashuvida yoshlar faolligining o'rni nimalardan iborat?", kabi shularga o'xshash ko'pgina savollar bilan tarbiyalanuvchilar murojaat qilishdi, barcha mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari davra suhbatida faol ishtirok etishdi. Ularda davlatimizda olib borilayotgan ma'naviy jarayonlar haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Davra suhbatidan ma'naviy- axloqiy sifatlar, saxovatlilik, o'zbek milliy mentalitetiga xos tushunchalar haqida ko'pgina bilimlarga va ma'lumotlarga ega bo'lishdi va yaxshi ta'surotlarga ega bo'ldilar.

Tarbiyalanuvchilarning ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayonida mehribonlik uyining o'rni beqiyosdir. Biz tanalagan mavzuimiz yuzasidan tadqiqot ishlarini Namangan shahridagi 26-sonli Mehribonlik uyida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy

sifatlarini shakllantirish jarayonidagi maqsadini aniqlab oldik: tarbiyalanuvchilarda insoniylik, rahmdillik, mehr-oqibat, ko'ngli ochiqlik, mehribonlik, kechirimlik, mardlik, jo'mardlik, saxiylik, bag'rikenglik, yaxshilik, ezgulik, qo'li ochiqlik, ko'zi to'qlik, yordam berish, qo'llab-quvvatlash, jasurlik kabi sifat va xususiyatlarini shakllantirish, ularni ijtimoiy jarayonlariga munosabatini to'g'ri tarkib toptirish, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tarbiyalash, u yoki bu darajada ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga bo'lgan munosabatni shakllantirishdan iborat.

Mehribonlik uyida tarbiyachilarning faoliyatida tarbiyalanuvchilarning xulq atvorini kuzatish, tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni takomillashtirish bevosita ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, guruh rahbarlari bilan suhbat o'tkazish davomida olingan natijalar tahlil qilindi va tarbiyalanuvchilarni shartli ravishda uch guruhga ajratdik.

Birinchi guruhda yuqori darajada o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllangan bolalar kiritildi. Bu guruhga kiruvchi bolalar insoniylik, rahmdillik, mehr-oqibat, ko'ngli ochiqlik, mehribonlik, kechirimlilik, mardlik, jo'mardlik, saxiylik, bag'rikenglik, yaxshilik, ezgulik, qo'li ochiqlik, ko'zi to'qlik, yordam berish, qo'llab-quvvatlash, jasurlik kabi sifat va xususiyatlari shakllangan va amaliy faoliyatlarida ana shu xususiyatlarini namoyon eta oladi [31].

Ikkinchi guruhga o'rta darajada o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini qisman shakllangan bolalar kiritildi. Bu guruhga kiruvchi bolalar insoniylik, rahmdillik, mehr-oqibat, ko'ngli ochiqlik, mehribonlik, kechirimlik, mardlik, jo'mardlik, saxiylik, bag'rikenglik, yaxshilik, ezgulik, qo'li ochiqlik, ko'zi to'qlik, yordam berish, qo'llab-quvvatlash, jasurlik kabi sifat va xususiyatlar qisman anglab yetadigan qiziqishi o'rtacha, faqatgina ularda muruvvatlilik va saxovatlilik fazilati qisman shakllangan, amaliy faoliyatga aylanmaganligi ko'rinadi.

Uchinchi guruhga o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllanmagan tarbiyalanuvchilar kiritildi. Ularda insoniylik, rahmdillik, mehr-oqibat, ko'ngli ochiqlik, mehribonlik, kechirimlik, mardlik, jo'mardlik, saxiylik, jasurlik kabi sifat va xususiyatlarni tassavvur eta olmaydigan, faqat o'z manfaatlarini o'ylaydigan tarbiyalanuvchilar kiritildi.

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarni o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi.

Aniqlovchi bosqichda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini qay tarzda shakllanganligi o'rganildi, o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan nazariy bilimlar o'rganildi. O'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun guruh rahbarlari ularni tahlil qilishdi, asosiy g'oyalar belgilab olindi, uchrashuv va suhbatlarning asosiy tarkibiy qismlari aniqlandi [28-32].

Suhbat va uchrashuvlar o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun tashkil etiladigan darsdan tashqari faoliyat jarayonidagi ma'naviy tadbirlar bolalar bilan birgalikda tashkil etildi. Tarbiyalanuvchilar ma'naviy tadbirlarda devoriy gazetalar, turli milliy urf-odatlar aks ettirilgan bukletlar tayyorlash jarayonida ifoda etishdi.

### **Tarbiyalanuvchilarning milliy ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalanganliklari darajasi**

<b>Guruhlar</b>	<b>Daraja ko'rsatkichlari</b>					
	<b>Yuqori</b>		<b>O'rta</b>		<b>Past</b>	
	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>
26- sonli Mehribonlik uyi 23nafar	10	33,5	12	46,5	4	20
SOS bolalar shaxarchasi 35 nafar	9	25,3	19	39,7	7	34,9

Shakllantiruvchi bosqichda - darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini

shakllantirishga doir ma'naviy-axloqiy tadbirlar amalga oshirildi. Ya'ni turli tarbiyaviy ahamiyatga ega kechalar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilgan kechalar, davra suhbatlari shunga o'shashash bir qancha muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatini shakllantiruvchi tadbirlar uyushtirildi.

Yakunlovchi bosqich jarayonida tarbiyaviy faoliyat shakllarining samarali qo'llanishiga doir tajriba o'tkazildi. Darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining mustaqil faoliyati yo'lga qo'yilib, ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllanganlik darajasi tahlil qilindi [33].

Darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarini ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarini o'tkazish natijasida ularda ma'naviy tarbiyasi, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini shakllantirishga oid bilimlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, muruvvatlilik va saxovvatlilik fazilatlarini shakllantirish da ijobiy o'zgarishlar qo'lga kiritildi. Quyidagi jadvalda keltirilganidek, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida yuqori darajada o'smirlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllanganlik natijalari o'z aksini topdi.

### **Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi (ta'kidlovchi tajriba)**

<b>Guruhlar</b>	<b>Daraja ko'rsatkichlari</b>					
	<b>Yuqori</b>		<b>O'rta</b>		<b>Past</b>	
	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>	<b>Nafar</b>	<b>Foiz</b>
26- sonli Mehribonlik uyi 23nafar	7	25,3	10	42,4	8	32,2
SOS bolalar shaxarchasi 35 nafar	5	16,5	13	33,3	15	50,2

Jadval ko'rsatkichlaridan anglanganidek, ma'naviy-axloqiy sifatlar yuqori darajada 26- sonli mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarining chorak qismi (25, 3 foizi)da shakllangan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa mazkur sifatlarning past darajada shakllanganligi jami respondentlarning yarmi (50,2 foizi) tomonidan namoyish etilgan xatti-harakatlarda, ularning muomalalarida, shuningdek, atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlandi. Respondent-tarbiyalanuvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi, yurish-turishda, xatti-harakatlari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishishda axloq me'yorlariga amal qila olishlari, muhtojlarga yordam ko'rsata olishlari, ta'lim muassasasi jamoasi, shu jumladan, tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo'la olishlari, ijtimoiy-foydali mehnat jarayonida faol ishtirok etishlari, o'z dunyoqarashlarini o'stirishga intilishlari, o'zgalarni hurmat qilishlari, tabiat boyliklari va ta'lim muassasasi mulkini asrashga intilishlari, milliy istiqlol g'oyasi mohiyatini yetarli darajada anglay olishlari hamda e'tiqodga ega ekanlik kabi holatlarning namoyon bo'lganligi ijobiydir.

Shunga ko'ra statistik tahlilning olti yo'nalishdan biri bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Statistik tahlil uchun so'nggi – tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayot va oila xo'jaligini boshqarishga tayyorlash yo'nalishi bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar qabul qilindi. Mazkur yo'nalish bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar St'uyudent-Fisher metodi (kriteriysi)ga muvofiq statistik tahlil qilindi [34].

Matematik nuqtai nazardan bu holatda natija  $X > Y$  ga teng bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Metod mohiyatiga ko'ra bayon etilgan g'oyaga qarshi antig'oya (teskari g'oya) ilgari surilishi kerak. "Mehribonlik" uylaridan tajriba guruhlariga jalb etilgan tarbiyalanuvchilarda oilaviy hayot va oila xo'jaligini boshqarish borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi nazorat guruhlariga respondentlariga teng, degan xulosa muqobil g'oya mazmunini ifodalaydi. Bu holat matematik nuqtai nazardan bu holatda natija  $X = Y$  ga teng bo'ladi.

Shunday qilib, ta'kidlovchi tajriba natijalariga ko'ra Student-Fisher metodi bo'yicha amalga oshirilgan tahlil mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga oid maxsus dastur bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi. [35]

Darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarni ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga muvofiq darsdan tashqari faoliyat jarayonida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarni ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllanganligi borasida fikr to'la tasdiqlandi. Uning tasdiqlanishi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarni ma'naviy- axloqiy sifatlarini shakllantirishda samarali va muvaffaqiyatli shakllantirishga xizmat qilish ehtimoli ko'zda tutilgan metodikaning pedagogik jihatdan to'g'ri asoslanganligini isbotladi va muammo yuzasidan kerakli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

- 1) Maqsadning aniqligi hamda vazifalarning to'g'ri belgilanganligi tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga yordam berdi. mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga ga doir maxsus metodikaning ishlab chiqilganligi tajriba jarayonining samarali tashkil etilishini kafolatladi.
- 2) Sinov ishlarining muayyan tashkil etilishi ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qildi, shu bilan birga mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda eng muhim nazariy hamda amaliy bilimlar bilan qurollantirdi.
- 3) Maxsus metodika mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga oid ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga imkon berdi.
- 4) Tasdiqlovchi tajriba bosqichida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlar guruhi va SOS bolalar shaharchasi o'smirlar guruhlarida sinovgacha va sinovdan keyin olingan natijalarning tahlili kutilgan natijaga erishganlikni

tasdiqladi. Ya'ni o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga borasida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlar guruhlarining respondent-tarbiyalanuvchilari SOS bolalar shaharchasi o'smirlar guruhlarini respondentlarinikiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdilar. Tajribasinov ishlari natijalarini Student-Fisher kriteriyasi asosida statistik tahlil qilish mazkur xulosaning haqqoniyligini tasdiqladi.

### **UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR**

1. Nazariy o'rganish zamonaviy sharoitda mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish ularni komil inson sifatida tarbiyalashning muhim asosi ekanligini tasdiqladi.

2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda biologik va ijtimoiy omillarning ta'sirlarini inobatga olish lozimligi muassasalar faoliyatini kuzatish asosida to'la tasdiqlandi.

3. O'zbek xalqi mentalitetiga xos bo'lgan xislat – bag'rikenglik yetimlarga yordam ko'rsatish, ularni moddiy, ma'naviy va ruhiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularni mutlaqo begona oilalar tomonidan farzandlikka olishda ham yaqqol namoyon bo'lishi mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

4. Tadqiqotni ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirish yo'nalishlarini aniq belgilab olish lozimligi ko'rsatdi.

5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga qaratilgan pedagogik faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab olish amaliyot uchun tavsiya etilayotgan metodika g'oyalarini to'g'ri shakllantirish imkoniyatini yaratdi.

6. Tarixiy-nazariy tahlil natijasida O'zbekiston sharoitida Mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, unda o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish masalalari tadqiq etilganligi ma'lum bo'ldi. Biroq, tarbiyalanuvchilarni aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy hamda ruhiy kamolotga

yetkazishda ayrim jihatlarning inobatga olinmaganligi ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda kutilgan natijalarga erishilmaganlikni ko'rsatdi.

7. Maqsadning aniqligi hamda vazifalarning to'g'ri belgilanganligi tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga yordam berdi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirisha doir maxsus metodikaning ishlab chiqilganligi tajriba jarayonining samarali tashkil etilishini kafolatladi.

8. Maxsus metodika mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga oid ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga imkon berdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini Stъudent-Fisher kriteriyasi asosida statistik tahlil qilish mazkur xulosaning haqqoniyligini tasdiqladi.

## **TAVSIYALAR**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishsh, shakl va metodlarini izlab topish.

2. Ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishga doir turkum qo'shimcha mashg'ulotlarning tashkil etilishini yo'lga qo'yish.

3. Tarbiyalanuvchilarini ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida amaliy psixologik yordam ko'rsatish borasidagi xorijiy mamlakatlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish hamda milliy va mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda respublika Mehribonlik uylari amaliyotiga keng tadbiiq etish.

4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllanirishda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida ularning faoliyatiga axloqshunos, iqtisodchi, psixolog, fiziolog hamda pedagog olimlar, shuningdek, tibbiyot xodimlari, diniy hamda soliq idoralarining vakillarini jalb qilish.

5. Tarbiyalanuvchilarni oila muhitiga yaqinlashtirish maqsadida Respublika "Mahalla" jamg'armasi, "Oila" ilmiy-amaliy Markazi hamda mahalla fuqarolar

yig'inarining ko'magida "Mehribonlik uylari"da "Oila kuni"ni tashkil etish, shuningdek, kelishuvlar asosida ta'til kunlarida tarbiyalanuvchilarni oilalarda bo'lishlarini yo'lga qo'yish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 24 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
4. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” /Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni. 1997. – 31-61-b.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan /Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – 214 b.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T “O'zbekiston”, 1995y.]
7. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
8. Abduraimov P. Milliy tarbiya tamoyillari / Kasb-ta'lim j. –T 2002. 4-son.16 b.
9. Abdurahmonova F.Yu. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz. ..diss. avtoref. – T.: 2007. – 23 b.
10. Avloniy, Abdulla. Adabiyot yoxud milliy she'rlar // Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2-tom. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 34-92-b.
11. Avloniy, Abdulla. Maktab gulistoni // Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2-tom. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 34-92-b.
12. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud ahloq” T. “O'qituvchi.” 1992. 14-bet.)
13. Ajdodlar o'giti / To'plovchi va izohlar muallifi B.Ahmedov. – T.: CHo'lpon nashriyoti, 1991. – 238 b.
14. Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – 47-b.
15. Anikeva N.P. Jamoada ruhiy muhit. – T.: O'qituvchi, 1993. – 4-b.

16. Ahmedova S. O'ksik dillar faryodi / Qissa. – T.: “Yurist-mediya markazi” nashriyoti, 2007. – 143 b.
17. Asqarova O'. “Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2001. – 186 b.
18. Asqarova O'. Milliy g'urur tarbiyasi: (Mehribonlik uylari misolida). – T.: O'qituvchi, 2003.
19. Yusupova G.R. Mehribonlik uylari tarbiyalunavchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasi: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2011. – 24 b.
20. Bozorov E.B., Musurmonova O.A. O'qituvchi ijodkorligi davr talabi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 64 b.
21. Bolalarni oilaga qabul qilish va uning ijtimoiylashuvini amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar. Uslubiy qo'llanma. – T.: Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2008. – 113 b.
22. Bolalar ruhiyatiga psixologik-pedagogik yondashish yo'llari (bolalardagi psixologik muammolar va ularni bartaraf etishda mutaxassis maslahati). Uslubiy qo'llanma. – T.: Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2008. – 152 b.
23. Buxoroiy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad. – T. O'zbekiston, 1990 –55-57 b.
24. Jamoldinova O. Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish // Uzluksiz ta'limi j. – T.: 2008. 4-son. – 53-56-b
25. Jamoldinova O. Ma'naviy muhit – sog'lom turmush madaniyatining asosiy omili // Xalq ta'limi j. – T.: 2008. 2-son. – 17-21-b.
26. Jo'raev R.X., Safarova R.G', Musaev U.Q. Pedagogika fanlari kontseptsiyasi // Xalq ta'limi j. – T.: 2004. 5-son. – 8-32-b.
27. Ibragimova G.X. O'zbek xalq milliy an'analari vositasida muhandis o'qituvchilarni kasbiy pedagogik tayyorlash: Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 1996. – 146 b.

28. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 152 b.
29. Insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2002. – 164 b.
30. Инструкция по использованию программного обеспечения банка данных о воспитанниках и выпускниках домов мехрибонлик. – T.: Республиканский центр социальной адаптации детей. 2007. – 62 s.
31. Isimova A.E. Darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari (V-IX sinflar misolida).: Ped. fanl. nomz. ... diss. – T.: 2005. – 176 b.
32. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).–T. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi,2008–181 b.
33. Сафо Очилов. Независимость: духовность и основы воспитания. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук в форме научного доклада.Т.:1998, 34-35 ст).
34. Kaykovus. Qobusnoma / Forschadan Muhammad Rizo Ogag'iy tarjiması. – T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 205 b.
35. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot /O'quv qo'll. – T.: Universitet, 1999. – 96 b.

#### **FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI**

1. [http://www1.umn.edu/humanrts/russian/crc/Rreport\\_uzbekistan2005.html](http://www1.umn.edu/humanrts/russian/crc/Rreport_uzbekistan2005.html).
2. <http://www.centrasia.ru/newsA.php4?st=1069621500>.
3. <http://edunews.eurekanet.ru/vesti/info/954>.
4. [http://www.deti.zp.ua/show\\_article.php?a\\_id=300105](http://www.deti.zp.ua/show_article.php?a_id=300105).  
<http://www.cirota.ru/foster/>.
5. <http://www.rl-online.ru/articles/1-04/413.html>.
6. <http://eparhia.onego.ru/sirota.htm>.
7. <http://kid-in-danger.narod.ru/>.

8. <http://old.iamik.ru/11309.html>.

## Ilovalar

### Glosariy

#### 1- Ilova

**Mehribonlik uylari** – yetim va ota-onalarining yoki boqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun davlati tomonidan ochilgan ta'lim tarbiya muassasasi. Yetim yoki qonuniy vasiylar qaramog'ida bo'lmagan bolalar, ota-onalari sud xukmi bilan ota-onaldik xuquqidan mahrum qilingan, ota-onalari voz kechgan bolalarni uchun tashkil qilingan. Mehribonlik uylarida 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalar yashashi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

**Ijtimoiy tarbiya** – bolada ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ta'sirning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan, oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarbiyasi, mehnat jamoasi tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarbiya institutlarini qamrab oladigan murakkab ma'naviy-ma'rifiy jarayondir.

**Ijtimoiy siyosiy faollik** - milliy o'zligini anglagan, milliy umuminsoniy qadriyatlarning mazmun mohiyatini idrok etadigan, o'z manfaatlarini jamiyatva davlat manfaatlari bilan uyg'un tarzda tassavvur eta oladi, o'z xuquq va erkinliklari bilan birga jamiyat va davlat oldidagi burchlarini ham anglab yetadigan va amaliy faoliyatlarida ana shu xususiyatlarini namoyon eta oladi.

**Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlariga** - doir yaxshilik, insoniylik, rahmdillik, mehr-oqibat, ko'ngli ochiqlik, mehribonlik, kechirimlik, mardlik, jo'mardlik, saxiylik, bag'rikenglik, yaxshilik, ezgulik, qo'li ochiqlik, ko'zi to'qlik, yordam berish, qo'llab-quvvatlash, jasurlik kabi sifat va xususiyatlar ijtimoiy xodim kasbiy kompetentligining muhim mezonlaridir.

**Fuqarorlik ma'suliyati** – jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan g'alaba, yutuq va muvofaqiyatlarga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

**Madaniyat** – dunyo to'g'risidagi tassavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyliги bilan bog'liq odamlar uchun umumiy axloq qoidalar tizimi.

**Tarbiya** – ma'naviy manbaalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'qquvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqqotidir.

**Tarbiya jarayoni** – tarbiya jarayoning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti – harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

**Tarbiya maqsadi** – talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

**Tarbiyachi** - “eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi” (Konfutsiy)

**Millatlararo totuvlik g'oyasi (MTG')** - bu umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini tarannum qiladigan va shu hududdagi tinchlik hamda barqarorlikni kafolatiga xizmat qiladigan g'oyadir.

**Ma'naviy madaniyat** — bilimlar ko'lami, ularga bo'lgan qizig'ish va ularni o'z xulk -atvorining motivi sifatida tanlashda namoyon bo'ladigan qadriyatlar xamda axloq an'analarining jamiyatda shakllangan tizimiga munosabatning muayyan darajasi. Ma'naviy madaniyat vijdon va nomus, yaxshilik, sevgi, do'stlik, qadr-qimmat kabi sifatlarni garmonik uyg'unlashtiradi va qaror toptiradi. SHu bilan bir vaqtda u qarama-qarshi unsurlarni xam o'z ichiga oladi xasad va yovuzlik, sotqinlik, xudbinlik, nafrat.

**Ma'naviy tarbiya** — kundalik axloqiy munosabatlar mobaynida amalga oshiriladigan tarbiya: axlokiy ongning shakllanyshi, axloq tafakkur va mas'uliyatli tanlash. Kobiliyatining rivojlanishi. Axloqiylik, xulq-atvordagi odatlar

tug'ilgan paytdan boshlaboq tarbyaning mazmunini tashkil ztadi. Axloqiy xulq-atvorning tashqi mezoni bo'lib, ijtimoiy fikr talablarini bajarish xisoblanadi; ichki mezon bo'lib, vijdon — insonda uning xatti-xarakati, tavsifi, ma'naviy qanotlanganlik xolati, afsuslanishi va bezovtalanishi, vijdon azobi va' ma'naviy qiynoqqa bog'lik xolda insonda uyg'onadigan kuchli xissiyot,xisoblanadi.

**Qadriyat** – bu qadr-qimmat ma'noni anglatib, u inson uchun qadrlı bo'lgan barcha narsa va hodisalar ( predmet va jarayonlar ) majmuidir.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – bu umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan va uning tsivilizatsiyasi bilan bog'liqq bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir

## 2-ilova

### “Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smirlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish” yuzasidan suhbat savollari:

T/r	Savollar
1	O'zbekiston xalqi qadimdan muhtojlarga beg'araz yordam berish g'oyasini axloqiy madaniyatning asosi ekanligi qanday?
	Muruvvat va saxovat moddiy va ma'naviy shaklga ega ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida ekanligini ayting?
2	“Muruvvatlilik va saxovatlilik” nima uchun kerak?
3	Ma'naviyatli -axloqli shaxsning qanday xususiyatlarini bilasiz?
4	“Saxovatlilik” deganda nimani tushunasiz?
5	Mamlakatimizdagi tinchlik osoyishtalikni asrashda sizning ma'suliyatingiz nimalardan iborat?
6	Sizningcha ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
7	O'smirlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishida OAV o'rne nimalardan iborat?
8	Ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda tadbirlarning o'rne qanday deb o'ylaysiz?
9	Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatları xalqimiz tabiatiga xos deganda nimalarni tushunasiz?
10	Milliy madaniyatimizning takomillashuvida yoshlarning o'rne

**Ibratli rivoyat****Olim Muhammad rasul Rasuliy aytadi:**

Kuz kunlaridan bir kun sakson yoshga kirgan bir chol yog'og'dan yasalgan uyda o'tirgandi. Nihoyatda qariganligida uning soch-soqoli juda oqorgan bo'lsa ham, yuzi to'la, beli baquvvat va qo'llari chayir, hamma a'zolari salomat edi. Cholning qarshisida uning nabira va evaralari o'ynab yurgandi.

Shu payt bir yigiy keldi-da, cholga salom berib, uning xol-ahvolini so'radi. Chol bilan bir oz so'zlashib o'tirgandan keyin undan shuncha yoshga yetgan bo'lsa ham, yosh yigitlardek quvvatli va g'aytarli ekanini sababini so'radi. Chol u yigitga:

- Otam-onam yoshligimdan boshlab kun chiqquncha o'rnimda yalqovlanib yotishga ruxsat bermadi. SHuning uchun ertalab darhol o'rnimdan turishim bilan bir ish bilan mashg'ul bo'ldim, ish va mehnatdan sira qochmadim, erinmadim. Ishga ixlos bilan berilib, uni o'lda-jo'lda qoldirmasdan to'la-to'kis bajarishga g'ayrat qildim. Butun umrimni ish va mehnat bilan o'tkazdim. Ish-mehnat butun a'zoyimni quvvatli qildi, menga uzoq umr, salomatlik bag'ishladi. Endi o'g'illarim va nabiralarimni ish-mehnatga o'rgatib turibman. Agar sen ham mendek ko'p yashashni, quvvatli va sog'-salomat bo'lib umr kechirishni istasang, ish mehnatdan aslo tortinma. Har vaqt ixlos bilan berilib ish qil, yalqovlikdan yiroq bo'l, - deb javob berdi.

### “Kerakli so’zlarni topib qo’ying” metodikasi

**Treningning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarda guruhdoshlariga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

#### Treningning borishi:

I. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga bir varaq qog’oz olib, doskaga yozilgan quyidagi gaplardagi tushirib qoldirilgan so’zlarni topib yozishni so’raydi.

1. Men ko’proq insonlardagi .....qadrlayman.
2. Men o’z tengdoshlarimni ..... uchun hurmat qilaman.
3. Men o’z tengdoshlarimni ..... uchun hurmat qilmayman.
4. Men o’zimda ko’proq .....fazilatlarni aks ettirishni xohlayman.
5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim – bu .....
6. Men istalgan qarorni chiqarishda ..... asoslanaman.

II. O’quvchilar individual tarzda gaplardagi kerakli so’zlarni yozib bo’lishgandan so’ng, dastlab juftliklarda va so’ngra guruhlarda o’z fikrlarini birlari bilan o’rtoqlashdilar.

III. Guruhlarda muhokama qilish uchun ajratilgan vaqt tugagach, o’qituvchi doskaga quyida ko’rsatilganidek, “Toifalash jadvali”ni chizadi va uni guruhlarda to’ldirishni so’raydi.

Biz qadrlaymiz.....	Biz hurmat qilamiz...	Biz hurmat qilmaymiz....	Biz erishishni istagan fazi - latlar	Bizning maqsadimiz...	Biz tayanadigan asoslari...


IV. Har bir guruh o'z toifalash jadvallarini to'ldirib bo'lishgach, alohida-alohida taqdimot qiladilar.

## 5 - ilova

### “Fikr bildirish...” metodikasi

**Treningning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarda turli vaziyatlarni tahlil etish orqali ijtimoiy-siyosiy faolligini shakllantirish.

#### **Treningning borishi:**

I. Trener dastlab o'quvchilarga quyidagi ijtimoiy-siyosiy mazmuniga ega vaziyatlarni taqdim etib, ularga “har doim”, “ba'zan”, “qisman”, “hech qachon” javoblarini berishni tavsiya etadi:

1. Men davlat va jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarimni bilishga intilaman.
2. Men ijtimoiy-faolligimni doimo namoyon etaman.
3. Men o'z tasavvurlarimda davlat siyosiy jarayonlariga va siyosiy xodisalarga faol munosabatda bo'la olaman.
4. Men milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni hurmat qilaman.
5. Men boshqa millat xususiyatlarini bilishga qiziqaman.
6. Men milliy tafovutlarga tolerant munosabatda bo'laman.
7. Men o'zgacha nuqtai nazarni hurmat qilaman.
8. Men o'z nuqtai nazarimni to'g'ri va asosli bayon qila olaman.
9. Men suhbatdoshimni empatik qabul qila olaman.

II. O'quvchilar vaziyatlarni individual tarzda tahlil etib bo'lishgach, dastlab juftliklarda, so'ngra guruhlar birlashib, vaziyatlar berilgan javoblarni muhokama etishadi va umumiy qarorlar qabul qilinadi.

### “Kontakt” – jamoaviy hikoya tuzish treningi.

#### Trening maksadi:

- 1) ishtirokchilarni bir-biri bilan tanishtirish;
- 2) do'stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- 3) tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ruhiy to'siqlarni yengishga o'rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** Mazkur trening tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar jamoasini, uning tabiati, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e'tibor berishni, kimga nimada yordam berishni, kimni kuvvatlashni va sh.k.larni bilishga imkon yaratadi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot boshlanishidan oldin tarbiyachi iltimosiga ko'ra tarbiyalanuvchilar xonaning kiraverish joyida maxsus stolga tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan qog'ozlardan bittadan tanlab oladilar (raqamli qog'ozlar o'quvchilar soni bo'yicha tayyorlanadi) va doira shaklida ko'yilgan stullarga borib joylashadilar.

Tarbiyalanuvchilar o'z joylarini egallagach, tarbiyachi ular bilan tuziladigan hikoyaning mavzusini kelishib oladi yoki tarbiyachining o'zi biron bir mavzu taklif etadi (hikoya mavzusi tarbiyalanuvchilarning yoshi, qiziqishlarini hisobga olgan holda sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-ahloqi haqida bo'lishi mumkin).

Mashg'ulot tarbiyalanuvchilardan birining biron bir mavzu yoki tanlangan mavzu asosidagi hikoyasidan boshlanishi mumkin (uncha faol bo'lmagan guruhlarda mavzu bo'yicha hikoyani tarbiyachining o'zi boshlab berishi mumkin). Hikoyani boshlagan tarbiyalanuvchi, uning eng qiziqarli joyida so'zlashdan to'xtab, “Hikoyaning davomi raqamli tarbiyalanuvchida” deydi. Raqami ko'rsatilgan tarbiyalanuvchi hikoyani (voqeani) to'xtagan joyidan (mavzudan chiqmagan holda) boshlab davom ettiradi. Bu tarbiyalanuvchi ham avvalgi tarbiyalanuvchi kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida to'xtab “Hikoyaning davomi raqamli o'quvchida” deydi. Mos raqam ko'rsatilgan tarbiyalanuvchi hikoyani

(voqeani) kelgan joyidan boshlab davom ettiradi. Hikoyani soʻzlash, davom ettirish davradagi tarbiyalanuvchilarning har biri ishtirok etmaguncha, shu tariqa davom etadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning soʻzlayotgan hikoyalari bir-biriga mantiqan bogʻliq va mazmunga ega boʻlishini kuzatib boradi hamda mavzudan, mazmundan chetlanish boʻlsa, bu holatni toʻgʻrilab boradi.

Hikoya tuzilgach, tarbiyachi barchaga minnatdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

## 7- ilova

### “Qadam-baqadam” treningi.

Trening maqsadi: tarbiyalanuvchilarning tolerant xulq-atvorni egallaganlik darajalarini aniqlash.

Treningdan kutiladigan natija: tarbiyalanuvchilar bir-biriga karama-qarshi soʻzlarni topish orqali tolerant va intolerant soʻzlar bilan tanishadilar, ularning hayotdagi oʻrnini aniqlaydilar, bu soʻzlarni oʻz faoliyatlarida qoʻllash darajasini belgilaydilar.

**Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi.** Mashgʻulot “qadam-baqadam” usuli asosida tashkil etiladi, yaʼni mashgʻulot davomida amalga oshirilishi kerak boʻlgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har bir qadamda tarbiyalanuvchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar. Misol tariqasida, “Bir-biriga qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni ayt” mavzusidagi tarbiyaviy mashgʻulotni oʻtkazish tartibini keltirib oʻtish mumkin:

**1-qadam** – tarbiyalanuvchilar tarbiyachi tomonidan tarqatma materialda yozilgan soʻzlarni diqqat bilan oʻqib chiqishlari va har bir soʻzning qarshisiga ahamiyati boʻyicha qarama-qarshi boʻlgan soʻzlarni yozishlari zarur:

Hamdardlik –

Rahmdillik –

Ochiqkoʻnglilik –

Insonparvarlik –

Ziyraklik –

Sahovat –

Erkinlik –

Adolat –

**2-qadam** – tarbiyalanuvchilardan har bir soʻzga taʼrif berish talab qilinadi.

**3-qadam** – guruhlarga boʻlinib, keltirilgan soʻzlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

**4-qadam** – guruhlarda bir-birlarining hikoyalari (ertaklari) yuzasidan savol-javoblar oʻtkaziladi.

**5-qadam** – guruh ishlari oʻzaro baholanadi.

**6-qadam** – tarbiyachi mashgʻulotni yakunlaydi.

## 8- ilova

### “Panorama” treningi.

**Trening maqsadi:** mashgʻulot tarbiyalanuvchilarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa boʻlib) fikr yuritib hal etish, yechimini topish, koʻp fikrlardan zarurini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qoʻyilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, oʻz fikrlarini maʼqullay olishga oʻrgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** tarbiyalanuvchilar erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa boʻlib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga oʻz fikrini oʻtkazishga, uni maʼqullashga; qoʻyilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda oʻtilgan mavzular boʻiicha egallagan bilimlarini qoʻllay olishga oʻrganadilar.

**Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi.** Tarbiyachi mashgʻulotni yoshlar tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi taxdidlar, xatarlar: xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm, giyohvand moddalar tajovuzi, OITS, egotsentrizm, ahloqsizlik falsafasi, “Dunyo fuqarolari” — kosmopolitizm va ularga nimalarni qarshi qoʻyish: farzandlarni asrash, hushyorlik, yoshlarni gʻoyaviy qurollantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, tahdidlar mohiyatini oddiy soʻzlar, hayotiy misollar

bilan tushuntirish, millat kelajagi uchun mas'uliyatni shakllantirish, iroda, e'tiqodni mustahkamlash, ongli yashashga o'rgatish, axborot tajovuz mohiyatini ochib berish, nikohni mustahkamlash kerakligi haqida ma'lumot berishdan boshlaydi. Tarbiyachi mashg'ulotning asosiy mavzusi bo'yicha yo'naltiruvchi so'zida, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgani, chunki mafkuraviy immunitet — begona, zararli g'oyalar, mafkuralar bilan to'qnash kelganda, unga nisbatan o'z munosabatini bildira olish, unga qarshi kurashishga g'oyaviy, ma'nan tayer bo'lish imkoniyati ekanligi, har bir odam, avvalo, har bir yosh o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmaguncha bunday immunitetni shakllantirib bo'lmasligi haqida fikr bildiradi va pgu sababdan bugungi tarbiyaviy mashg'ulotning mazmunini “Zamonaning global muammolari” mavzusi orqali yoritish zarurligini tushuntiradi.

Tarbiyachi kirish so'zidan so'ng, tarbiyalanuvchilarning umumiy soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani maqsadga muvofiq). So'ngra, u tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotning maqsadi va uni o'tkazilish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarkatma materiallarni tarkatadi. Tarbiyachi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy fikr “Ison odobi bilan go'zal” mavzusiga kiritilgan odob axloqqa oid ma'lumotlar bilan tanishib chiqish va ulardan bittasini tanlashni talab etadi. Tanlagan muammolari bo'yicha ajratilgan bo'limga o'z fikr-mulohazalarini birgalikda yozma bayon etishlarini so'raydi, uni bajarishga ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi holatlari ishlab chiqiladi.

**Mavzu: “O’zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo’lmaydi” nomli  
bayram tadbiri ishlanmasi**

Musiqqa sadolari ostida bolalar zalga taklif qilinadi.

**Tarbiyachi :** Bolalar, O’zbekistonimiz qachon mustaqil bo’lgan ?

**Tarbiyalanuvchi:** O’zbekistonimiz 1991 yil 31 avgustda mustaqil bo’ldi. 1-sentyabr esa “Mustaqillik kuni” deb e’lon qilindi. O’zbekistonimiz o’z bayrog’i, tamg’asi, madhiyasi, pul birligi, pasporti, Konstitutsiyasiga ega bo’ldi.

**Tarbiyachi :** Bizning yurtboshimiz kim ?

**Tarbiyalanuvchilarning javobi:** Yurtboshimiz Shavkat Nuromonovich Mirziyayev.

Bayrog’i bor, gerbi bor,

Erksevar O’zbekiston.

Madhiyangni kuylayman,

Jonajon O’zbekiston.

O’zbekiston Respublikasi madhiyasi aytiladi.

O’zbekiston uzra hilpirar bayroq,

Tinchlik posponidir hamisha, har chog’.

Bayroqdagi moviy rang musaffo osmon,

Unga boshin egar har mo’min inson.

Qizil rang esa tomirdagi qon,

Yashil rang tabiatning yorqin timsoli.

Yarim oy, yulduzlar, musaffo osmon,

Kelajagi buyuk hur O’zbekiston.

Tamg’amizda tog’lar bor,

Daryolar bor, bog’lar bor.

O’ng tomoni paxtazor,

Chap tomoni bug’doyzor.

Chambarakka o’ralgan,

Vodiy uzra quyosh bor,

Hurligimizning ramzi,

Xumo degan qushi bor.

**Tarbiyachi** : Bolalar, Vatan bu nima?

**Tarbiyalanuvchilarning javobi:** Vatan – bu uyimiz, bog'chamiz, maktabimiz, kindik qoni to'kilgan joy, bu hamma-hammasi Vatandir.

Mustaqil zaminsan, ey, ona diyor,

Qadaming tekkan joy bo'ladi gulzor.

Sen mening hayotim, baxtu iqbolim,

Kelajagi buyuk O'zbekistonim.

O'lka ko'pdir dunyoda,

Bir-biridan ziyoda.

O'rtoqjonlar, do'stlarim,

Tinglang yurak so'zlarim.

Bir guliston deydilar,

O'zbekiston deydilar.

Toshkent uning poytaxti,

Do'stlikdan kulgan baxti.

Oy bo'lamiz, toy bo'lamiz,

Sho'xliklari soy bo'lamiz.

Amir Temur bobomizdek,

Botir hotamtoy bo'lamiz.

Oy bo'lamiz, toy bo'lamiz,

So'zi shirin toy bo'lamiz.

Yigitchalar Alpomishu,

Qizlar Barchinoy bo'lamiz.

Kichkintoy demang bizni,

Vatan deya yonamiz.

Xushyorgina chaqqonmiz,

Sodiq farzand bo'lamiz.

Bir, ikki, uch, to'rt,

Sanashni ham bilamiz.

To'rt muchchamiz soppa-sog',

Sog'lom avlod bo'lamiz.

Madhiyang tilda,

Maqoming dilda.

Bayrog'ing qo'lda,

O'zbekistonim, O'zbekistonim.

Siz aytgan har bir joy,

Bitta bo'ston bo'ladi.

Hammasini qo'shganda,

O'zbekiston bo'ladi.

**Tarbiyachi** : bolalar, bizning shior?

Bizlar ham bo'laylik barkamol inson,

Bizga qoyil qolsin, jumlai jahon!

**Tarbiyachi** : Hamma joyda reklamalarga katta e'tibor berilgani uchun bizning Mehribonlik uyimizda ham reklamaga e'tiborsizlik bo'lmaydi.

**1-bola**: Agar siz har xil o'yinlar o'ynamoqchi bo'lsangiz.

**2-bola**: O'yinga qiziqsangizu o'yin haqida biror-bir ma'lumotga ega bo'lishni xohlasangiz.

**3-bola**: O'ynalgan o'yinlaringizni oson o'ynashni xohlasangiz, u holda:

**4-bola**: Biz bilan hamkorlik qiling, bizning uyimizga tashrif buyuring, bizning tarbiyachi opalarimiz sho'x va quvnoq o'yinlar o'ynatishni aslo unutishmaydi.

**Hamma bolalar**: Biz bunga kafolat beramiz, biz bunga kafolat beramiz.